

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 57 (1118), 2024-yil 20-mart, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



ULUG‘ AYYOM KUNLARI INSONLARGA MEHR-MURUVVAT KO‘RSATISH, MAHALLALARDAGI OBODLIK VA BUNYODKORLIK XALQIMIZGA XOS EZGU QADRIYAT

Prezident Shavkat Mirziyoyev 19-mart kuni Toshkent shahridagi sanoat va ijtimoiy soha obyektlari faoliyati, mahalladagi obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi, bahorgi daraxt ekish tadbirida ishtirok etdi.



Dastlabki manzil Quyuv-mexanika zavodi bo‘ldi.

Qirq gektardan ziyod maydonli bu zavod bir paytlar to‘liq ishlanmay, past rentabelli bo‘lib qolgan edi. Shu bois, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tasarrufiga o‘tkazilib, 2013-yilda modernizatsiya qilindi. So‘nggi yillarda mahalliyashtirish jadal kengayib, uning iqtisodiy samaradorligi yanada oshdi.

Bugun majmua yiliga 1 ming 200 ta yuk vagoni ishlab chiqarish va 1 ming 500 tasini ta‘mirlash quvvatiga ega barqaror korxonaga.

Vagonlar tarkibi ham talabgir. Jumladan, yarim ochiq, usti yopiq, uzun bazalida hamda don, sement, mineral o‘g‘it tashishga mo‘ljallangan 6 turdagi yuk vagonlari ishlab chiqarilmoqda.

Metall quyish og‘ir sanoatning eng muhim tarmog‘i, ta‘bir joiz bo‘lsa, “yuragi” hisoblanadi. Bu yerda 120 million dollar hisobiga quyuv sexi barpo etilgan. U yiliga 26 ming tonna mahsulot tayyorlashga mo‘ljallangan. Bu yerda temir yo‘llar ekspluatatsiyasi va harakat tarkibida ishlaladigan barcha turdagi ehtiyot qismlar quyiladi.

Davlatimiz rahbari ushbu mahsulotlarni ko‘zdan kechirdi.

— Bugungi kundagi eng katta maqsadimiz — ko‘proq ish o‘rinlari yaratish. Masalan, bu yil mamlakatimizda 100 mingga uy qurmoqchimiz. Ular qachon odamlarga ma‘qul bo‘ladi? Yonida ish o‘rni bilan bo‘lsa. Shuning uchun xuddi tomorqalarda bo‘layotganidek, ko‘p qavatli uylar bo‘yicha ham mahallalarda iqtisodiy loyihalari qilinadi. Qaysi xonadonda ishsiz bo‘lsa, bandligiga ko‘maklashiladi. Bunda mana shunday zavodlar muhim, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu bois, majmuada shaharsozlik, kommunal va boshqa tarmoqlar uchun ham

mahsulotlar ishlab chiqarish, bu imkoniyatlar bilan tadbirkorlarni tanishtirib, buyurtmalarni ko‘paytirish kerakligi ta‘kidlandi. Bu, o‘z navbatida, turdosh tarmoqlarda ham ish o‘rinlari ochilishiga turtki beradi.

Zavodda yuk vagonlari qurish, mexanika yig‘uv, g‘ildirak yig‘uv, quyuv, ta‘mirlash, temirchilik va presslash, tayyorlov va komplektlash kabi 26 ta sex bor. Prezidentimiz majmua bo‘ylab yurib, ulardagi ish jarayonini ko‘zdan kechirdi.

Korxonada 2018-2023-yillarda mahalliyashtirish dasturi bo‘yicha 100 ga yaqin turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish o‘zlashtirilgan. 2023-yilda jami 267 milliard so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan, 10 million dollarlik 170 ta vagon va ehtiyot qismlar eksport qilingan. Joriy yilda eksport hajmini 15 million dollarga yetkazish bo‘yicha shartnomalar imzolangan.

Korxonada xalqaro standartlarga muvofiq ISO 9001 sifat menejmenti va ISO 50001 energetika menejmenti tizimi joriy etilgan.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari poytaxtimizning Sergeli tumanida tashkil etilayotgan Yoshlar bog‘iga ko‘chib o‘tqazdi.

Ma‘lumki, Prezident tashabbusi bilan 2021-yildan buyon “Yashil makon” umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda. Jumladan, ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida Toshkentning “yashil belbog‘i” tashkil etilmoqda. Yoshlar bog‘i shu halqaning muhim bo‘g‘ini bo‘ladi.

Davlatimiz rahbariga bog‘ loyihasi haqida axborot berildi. Uning maydoni 75 gektardan ziyod bo‘lib, hududi jihatidan poytaxtimizda “Yangi O‘zbekiston” bog‘idan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi.

Bog‘ yettita katta hududga bo‘linadi. Markaziy xiyobonda turli maydonlar, ming

o‘rinli ochiq amfiteatr, milliy va xalqaro gastromomik zonalar barpo etiladi.

Ochiq havoda ovqatlanish va qiziqarli mashg‘ulotlar uchun alohida joylar bo‘ladi. Musiqiy favvoralar, ochiq osmon ostidagi kinoteatr, san‘at ko‘rgazmalari va lazer-shou imkoniyatlari yaratiladi. Bolalar uchun sport va o‘yin maydonlari, mashhur ertaklardagi qishloqlar, ustaxona, kutubxona tashkil etiladi. Sun‘iy ko‘l, kanoe va suzish havzasi, baliq ovi dam oluvchilarga huzurbaxsh bo‘ladi.

Shu kuni Toshkent shahri jamoatchiligi, davlat tashkilotlari va diplomatik korpus vakillari, yoshlar ishtirokida boqqa ko‘chatlar ekildi.

Prezident bog‘ loyihasida qatnashayotgan investor va loyihachilar, chet ellik diplomatlar bilan muloqot qildi.

— Xalqimiz qayerda bo‘lsa, daraxt ekishga intilgan. Amir Temur Samarqand atrofida so‘lim bog‘lar barpo etgan, boshqa shaharlarni ham obod qilgan. Buyuk bobolarimizga munosib bo‘lib, bu ishlarni qilyapmiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari bog‘ga kelgan yurt-doshlarimiz bilan suhbatlashib, ularni Navro‘z bilan tabriklandi.

Bog‘ga birinchi bosqichda ming tupdan ziyod kashtan, eman, sharq chinori, qizil kurtak, magnoliya, gujum kabi manzarali daraxtlar hamda buta va gullar ekiladi. Loyiha yakuniga qadar ularning soni 20 ming tupga yetadi.

Yana bir e‘tiborli tomoni, bu bog‘da tabiiylik, o‘rmon shakli, ekzotik manzara hosil qilinadi. Bog‘ foydalanishga topshirilishi bilan 350 tadan ortiq ish o‘rni yaratiladi.

Ayni kunlarda ham hududlarda ko‘chatlar ekilmoqda. Umuman, yurtimizda 347 gektar maydonda “yashil hudud”, 187 ta vazirlik va hokimlik bog‘lari barpo etilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent yo‘lovchi vagonlarini qurish va ta‘mirlash zavodini borib ko‘rdi.

Mamlakatimizda temir yo‘l transporti rivojlanib, qatnovlar soni ko‘paymoqda. Bu vagonlarga bo‘lgan talabni ham oshiradi. Mazkur zavodda 16 turdagi yo‘lovchi vagonlari ishlab chiqariladi va ta‘mirlanadi.

O‘tgan yili korxonada 32 ta yo‘lovchi vagoni tayyorlanib, 319 tasi ta‘mirlangan. Muhimi, kooperatsiya orqali ehtiyot qismlarning 70 foizi mahalliyashtirilgan.

Umuman, avvalgi yillarda 300 dan ziyod yo‘lovchi va texnik xizmat vagonlari ishlab chiqarilib, 50 dan ortig‘i eksportga yuborilgan. Bundan tashqari, 112 ta metropoliten vagonlari modernizatsiya qilingan.

Ular 28 yil davomida foydalanishga mo‘ljallangan va xalqaro talablarga to‘liq javob beradi, yo‘lovchilar uchun har tomonlama qulay, yuqori sifat va xavfsizlikka ega.

Vagonlarda isitish va sovitish tizimlari, havo aylanishi yanada yaxshilangan. Suv isitish uskunasi ham elektr energiyasida, ham ko‘mirda ishlaydigan mo‘ljallangan. Yo‘lovchilarni toza va salqin ichimlik suvi bilan ta‘minlash, telefon quvvatini to‘ldirish uchun maxsus moslamalar o‘rnatilgan. Bu yerda 619 nafar muhandis-ishchi mehnat qilmoqda.

Prezidentimiz vagonlarga chiqib ko‘rdi. Ularning dizaynini o‘zgartirish, yo‘lovchilarga qulayliklarni oshirish zarurligini ta‘kidladi. Elektr poyezdlar tarmog‘ini kengaytirib, aholi ko‘p tumanlarga olib borish, sohani alohida generatsiya quvvatlarini tashkil etish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Joriy yilda yana yuzlab vagonlarni qurish va ta‘mirlash rejalashtirilgan. Bundan tashqari, kon-metallurgiya korxonalarini uchun maxsus vagonlarni qurish, keng kupeli yangi turlarni o‘zlashtirish ko‘zda tutilgan.

Shu yerda zavodda rejalashtirilayotgan yangi yo‘nalish — elektr va metropoliten poyezdlari loyihasi ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, Toshkent — Xiva yo‘nalishiga qo‘yiladigan tezyur poyezd haqida axborot berildi. Prezidentimiz bu haqda 2022-yilda Xorazmda Jaloliddin Manguberdi haykalining ochilish marosimida aytdan edi. Bu uchun Janubiy Koreyaning “Hyundai Rotem” kompaniyasidan yuqori tezlikdagi elektropoyezd olib kelinishi mo‘ljallangan. 7 vagoniga ega elektropoyezd 351 ta o‘rindiqqa ega bo‘ladi. Soatiga 250 kilometr tezlikda harakatlana oladi.

Poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi Dilbuloq mahallasiga bu yilgi Navro‘z yanada ko‘tarinkilik bilan keldi. Davlat-xususiy sheriklik asosida zamonaviy mahalla idorasi qurildi. Ko‘p qavatli uylar yo‘lagi va ichki ko‘chalar, yerto‘lalar ta‘mirlandi. Anhor bo‘yi tartibga keltirilib, obod sayilgohga aylantirildi. Ishkomlar, nihollar, piyodalar yo‘laklari mahallaga ko‘rk bag‘ishladi.

O‘tgan yili kuzda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida qariyb 4 ming tup daraxt va buta ko‘chati o‘tqazilgan edi. Shu kunlarda ko‘p qavatli uylar oldidagi maydonlarga rayhon, namozshomkol kabi gullar ekildi.

Dilbuloq mahallasida 6 ming 700 nafardan ziyod aholi yashaydi. Mahalla xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Uch yuzga yaqin savdo, sanoat va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarida mahalliy yoshlar

va ayollar ishlamoqda. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti, oilaviy poliklinika, ixtisoslashtirilgan sport maktabi, pedagogika instituti filiali faoliyat yuritmoqda.

“Xavfsiz mahalla” tamoyili asosida hududga 360 ta videokuzatuv moslamalari o‘rnatilgan, ular mahalla profilaktika inspektori xizmat xonasiga ulangan.

O‘tgan yili 112 kishi ishga joylashtirilib, 181 nafari o‘zini o‘zi band qilgan. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish uchun 23 ta loyihaga kredit va o‘nga yaqin fuqaroga subsidiya ajratilgan. Xususan, bu yerda tikuvchilik sexi, go‘zallik saloni, poligrafiya va kompyuter xizmatlari, kutubxona, oziq-ovqat va qandolat do‘konlari tashkil etilgan.

Davlatimiz rahbari ushbu majmualarni ko‘zdan kechirdi, mahalla ahli bilan samimiy suhbatlashdi.

— Avvalo, sizlarni ulug‘ ayyom kunlari, kelayotgan Navro‘z bilan tabriklayman. Mahallangizdagi obodlikni, ish joylarini, bayram nafasini ko‘rib, xursand bo‘ldim. Nima uchun hududlarda ko‘p yuraman? Chunki men odamlarga ishonaman. Hamma mahallalarni shunday o‘zgartirishga harakat qilishimiz kerak. Mamlakatimizda 9 ming 450 ta, Toshkentda 585 ta mahalla bor. Hozir ularga iqtisodiy kompleks tashkilotlarini birlashtiradigan tizim qilyapmiz. Maqsadimiz — har bir xonadonga, har bir insonga yetib borish. Xalqning rozligi, duolariga munosib bo‘lish hammamizga nasib etsin, — dedi Prezident.

Shu boradagi manzilli chora-tadbirlar “mahalla yetiligi” va mutasaddilar bilan muloqotda muhokama qilindi.

— Xabarimiz bor, iqtisodiy kompleks tashkilotlarini mahallalarga birlashtiryapmiz. Bunda banklarning ham o‘rni bor. Ular orqali tumanlardagi korxonalariga qo‘shimcha sharoit yaratib, yengil kreditlar berib, yana ish o‘rinlari ochishini qo‘llab-quvvatlash kerak. Endi mahallalar ham zamonga munosib, harakatchan bo‘lishi lozim. Umuman, ishlayman degan odamga sharoit yaratib berishimiz shart, — dedi davlatimiz rahbari.

Mutasaddilar iqtisodiy kompleks faoliyatini mahallalarda tashkil etish, shahar sharoitida odamlarni ish bilan ta‘minlash vazifalari to‘g‘risida axborot berdi.

So‘ng davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev nogironligi bo‘lgan bolalar uchun 1-sonli “Muruvvat” internat uyini borib ko‘rdi.

O‘zbekiston — ijtimoiy davlat. Bu xalqimizning azaliy qadriyatlariga, bugungi insonni qadrlash tamoyiliga mos. So‘nggi besh yilda “Muruvvat” uylariga davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar 3 barobardan ziyod oshgan. Ulardagi xodimlar va o‘rinlar soni ham ko‘paytirilgan.

Aholiga sifatli xizmat va yordam ko‘rsatish maqsadida o‘tgan yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilgan edi. Pensionat, reabilitatsiya markazi kabi ko‘plab ijtimoiy muassasalar qatori “Muruvvat” uylari ham ushbu agentlik tizimiga o‘tkazildi.

O‘tgan yili bunday muassasalar uchun davlat byudjetidan 624 milliard so‘m ajratildi. Shuningdek, ularni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta‘minlash uchun avvalgiga qaraganda ikki barobardan ortiq mablag‘ berilmoqda.

Ilgari “Muruvvat” uylari o‘rtasida hamkorlik bo‘lmagan. Hozir ular o‘zaro fikr almashib, samarali usullarni, ta‘limdagi tajribalarni tatbiq etmoqda.

Davlat g‘amxo‘rligi natijasida Toshkentdagi ushbu “Muruvvat” uyi ham yangi qiyofaga kirdi. Qo‘shimcha bino qurilib, eski binolar kapital ta‘mirlandi. Yozgi sport zali, nogironlarni parvarishlash va jismoniy davolash bo‘limlari, tibbiyot va mashg‘ulot xonalari, faollari zali, kutubxona, yotoqxona va oshxona butunlay qaytalandi. Har bir bo‘lim, maxsus xonalar talab darajasida jihozlandi. Harakatlanishi qiyin bolalar maxsus aravachalar bilan ta‘minlandi.

Muassasada ruhiyatida sezilarli nuqsoni bor 4 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatiladi. Bugungi kunda 299 nafar o‘g‘il-qiz vasiylikka olingan. Ularga 334 nafar xodim, jumladan, malakali pedagog, defektolog va shifokorlar yordamlashmoqda.

Shavkat Mirziyoyev bolalarning mashg‘ulotlarini birma-bir kuzatdi. Ular bilan suhbatlashib, mehrini izhor qildi. Sharoitlarni yaxshilab, qulayliklar yaratib, nogironligi borlarning iloji boricha hayotda o‘rin topishiga ko‘mak ko‘rsatishini aytdi.

Prezidentimiz bunda ijtimoiy xizmat xodimlari ishini e‘tirof etib, bolalarga mehruvuvati uchun minnatdorlik bildirdi.

— Bolalarimizga yaxshi qarayotganingiz uchun katta rahmat sizlarga. Bu og‘ir mehnat, lekin juda savobli va kerakli mehnat, — dedi davlat rahbari.

Bolalarni imkon qadar reabilitatsiya qilish va hayotga moslashtirish, ota-onalarga psixologik yordam berish masalalari bo‘yicha fikr almashildi. So‘nggi yillarda imkoniyat va tizim paydo bo‘lgani, boshqa ijtimoiy muassasalardagi sharoitlarni ham yaxshilash zarurligi ta‘kidlandi.

Endilikda “Muruvvat” uylari zamonaviy reabilitatsiya jihozlari bilan ta‘minlanib, o‘z ishini yangi konsepsiya asosida yo‘lga qo‘yadi. Unga ko‘ra, bolalar individual rivojlanish dasturlari asosida jamiyatga integratsiya qilinadi. Barcha “Muruvvat” uylarida uchrashuv xonalari tashkil etiladi.

Shuningdek, “Qo‘llab-quvvatlash klublari” tuzilib, malakali mutaxassislar vasiylarga nogironligi bo‘lgan bolani parvarishlash, oila sharoitida tarbiyalash va jamiyatga moslashtirish bo‘yicha bilimlar beradi. Alohida ta‘limga tavsiya berilmagan, og‘ir darajadagi kasalliklari mavjud bolalar uchun “G‘amxo‘rlik guruhi” tashkil etiladi. Barcha hududiy reabilitatsiya markazlarida nogironligi bo‘lgan bolalar uchun shunday xizmatlar yo‘lga qo‘yiladi.

Muassasaning qozonxonasi va muhandislik tarmoqlari ham to‘liq yangilangan. Hududga manzarali va mevali daraxt ko‘chatlari ekilib, tashqi yoritish chiroqlari o‘rnatilgan, yo‘laklar asfaltlangan.

Muborak Ramazon oyida bemorlar holidan xabar olish, insonlarga yanada mehr-e‘tibor ko‘rsatish xalqimizning ezgu qadriyatidir.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘ZA muxbirlari

O‘ZBEKISTON QAHRAMONI ZAYNIDDIN NIZOMXO‘JAYEV FAXRIY UNVON BILAN TAQDIRLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning farmoniga muvofiq, Markaziy saylov komissiyasi raisi Zayniddin Nizomxo‘jayev davlat hokimiyati vakillik organlari hamda mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimidagi ko‘p yillik samarali mehnati, yurtimizda milliy saylov tizimini umume‘tirof etilgan xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, demokratik islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish,

fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarish borasidagi katta xizmatlari, yuksak salohiyatli kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni ona vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga qo‘shgan munosib hisssasi, shuningdek, tavalludining 70 yilligi munosabati bilan “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Zayniddin Nizomxo‘jayevga ushbu yuksak unvon va ko‘krak nishonini topshirdi.

Tibbiyot fanlari doktori, professor Z.Nizomxo‘jayev uzoq yillar qator mas‘ul lavozimlarda fidokorona mehnat qilgan. U 2014-yilda “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan mukofotlangan.

O‘ZA



Olam nurga to‘lsin sen bilan, Navro‘z!

HAR TUNI QADRLI,
HAR TONGI FARAHBAXSH

Ayni kunlarda ona diyorimizdayasharish va yangilanish ramzi, sharqona yangi yil — Navro‘zi olamni kutib olish va uni keng nishonlashga alohida tayyorgarlik ko‘rilmog‘da. Prezidentimizning “2024-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori qadimiy va asl milliy bayramimizni o‘ziga xos o‘tkazish yo‘lida muhim hujjat bo‘ldi.

▶ Davomi 6-betda



Ijtimoiy himoya

MEHR BOR JOYDA UMID VA ISHONCH MUJASSAM

Sardorbek ERGASHEV,
Ijtimoiy himoya milliy
agentligi Toshkent viloyati
boshqarmasi boshlig'i

Insonning quvvat manbai umid va ishonchda. U kelajagiga ishonsa, ertaga bugundan ham yaxshi bo'lishiga umid qilsa, har qanday to'siqni yengib o'ta oladi. Jamiyatda shunday toifa kishilar borki, ularga yon-atrofdagilar dalda berib turishi zarur. Shundaygina ularning ko'nglidagi umid alanga oladi. Negaki, ular ijtimoiy, ruhiy himoyaga muhtoj shaxslar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi aynan shunday insonlarga yordam berish maqsadida tashkil etilgan.



mahallalarda ijtimoiy xodimlar faoliyatini yo'lga qo'yish topshirildi.

Shundan kelib chiqqan holda, qator vazifalar aniqlab olindi. Tuman (shahar) lardagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari xodimlarining asosiy vazifasi va faoliyat yo'nalishlari aniq belgilab berildi. Ular og'ir ahvolda tashib qolgan va og'ir ahvolda tashib qolish xavfi yuqori bo'lgan 206,3 ming ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga bevosita mahalla darajasida kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmatlar ko'rsatmoqda.

Qolaversa, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlarini baholash orqali ularga individual tartibda ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatish rejasini ishlab chiqildi. Bundan tashqari, ichki resurslardan ham oqilona foydalanish nazarda tutilmoqda. Masalan, ko'ngillilarni, deydik, qarindosh, qo'ni-qo'shnilar yoki volontyorlarni ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatishga jalb qilish. Buning uchun ularning mazkur sohadagi

ta mahallaga aholi sonini hisobga olib, 426 nafar ijtimoiy xodim birlashtirilishi belgilangan. Tajriba tariqasida Yangiyo'l va Toshkent tumanlari tanlab olinib, 2023-yilning oktabr oyidan boshlab mahallaboy ijtimoiy xizmat ko'rsatish tashkil etildi. Yangiyo'l tumanida 28 nafar, Toshkent tumanida 26 nafar ijtimoiy xodim uchun mahalla binolaridan xona ajratilib, zarur moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlandi.

Natijada ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini individual ishlash bo'yicha 310 ta "Keys" muammolar bazasi shakllantirildi. Masalan, Yangiyo'l tumanidagi Pitalik mahallasida yashovchi Venera Amirovaga ro'rt va undan ortiq marotaba nafaqa tayinlangan ekan. Ijtimoiy xodim tomonidan ushbu holat bo'yicha "Keys" ochilib, kompleks baholandi. Oila bilan amalda oshiriladigan ijtimoiy yordam va xizmatlar rejasini ishlab chiqildi.

Unga asosan, "Inson" markazi ijtimoiy xodimi hamda maktabgacha va maktab ta'limi faoli tomonidan farzandi tumandagi xususiy bog'chaga, o'zi go'sht mahsulotlarini qayta ishlash korxonasiga jalb joylashtirildi. Fuqaro muntazam ish haqi olishga erishgach, kam ta'minlangan oilalar ro'yxatidan chiqarildi.

Qolgan 20 ta shahar va tumandagi 372 nafar ijtimoiy xodim uchun o'zlarini birlashtirilgan mahallalar joylashuvidan kelib chiqib, mahalla binosidan alohida xona ajratildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur tadbirlarning amalga oshirilishida mahalliy hokimliklarning roli katta bo'lmoqda. Chunki ular tomonidan ijtimoiy xodimlar uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda davlat tashkilotlari bilan bog'lab turishda ma'lumotlar bazasini aniqlashtirish va dalillastirishga olib kelindi.

Prezidentimizning joriy yil 12-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida turizm barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish nazarda tutilgan. Buning uchun nogironligi bo'lgan shaxslarning turizm infratuzilmasi va madaniy meros obyektlarida

erkin harakatlanishi bo'yicha zarur shart-sharoitlarni ta'minlash kerak bo'ladi.

Qarorda mazkur vazifaning aniq yo'nalishlari — turistik industriya obyektlari, madaniyat tashkilotlari va madaniy meros obyektlari, jumladan, muzey, teatr va joylashtirish vositalarida nogironligi bo'lgan shaxslarning bemalol harakatlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Nogironligi bo'lgan shaxslar sayohatga chiqqanida bemalol harakatlanishi uchun yo'laklar, dam olish joylarida maxsus o'rinarlar bo'lishi talab etiladi. Mana shunga o'xshash kichik ko'rinadigan, ammo katta ahamiyatga ega keng qamrovli ishlarni bajarish maqsadida biz dastlab Zangiota ziyoratgohini nogironligi bo'lgan shaxslarga moslashtirishni reja qildik. Shu bilan bir qatorda, Bo'stonliq va Parkent tumanlarida turizm yo'nalishida faoliyat yuritayotgan muassasalarni nogironligi bo'lgan shaxslarga moslashtirish orqali ularning sog'lom turmush tarziga, ijtimoiy moslashuviga erishishni ham maqsad qilganmiz.

Joriy yildan boshlab madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va tiklash uchun davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida nogironligi bo'lgan shaxslarning to'siqsiz harakatlanishi uchun madaniy meros obyektlarida, ularga shikast yetkazmagan holda, pandus, plintus va liftlar hamda ko'zi ojizlar uchun ushbu manzillarning kichraytirilgan o'lchamdagi maketlari o'rnatiladi. Ular to'g'risida brayl alifbosida ma'lumotlar joylashtiriladi. Bunda biz viloyatdagi 5096 nafar imkoniyati cheklangan shaxsni jamiyatdagi yangiliklardan xabardor qilish, madaniy va siyosiy bilimni oshirish va jamiyatga moslashuvini ta'minlashga erishamiz.

Mamlakatimizning tayanch kuchlaridan biri — yoshlar. Afuski, ular orasida hayot sinovlariga erta duch kelgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam bor. Ular hayotda o'z o'rnini topishi uchun bugun jon kuydirishimiz shart. Shu bois, davlatimiz rahbari topshirig'iga asosan, viloyatda vasiylik, homiylik,

patronatga olingan hamda oilaviy bolalar uylaridagi 3176 nafar bola bilan mahalladagi 426 ijtimoiy xodim shug'ullanadi. Bunda otana o'rni bosuvchi shaxslar bola oldidagi majburiyatini qay darajada bajarayotganini ijtimoiy xodimlar monitoring qilib, baholab boradi.

Avvalgi tizimda komissiyalar raisi hokimlar bo'lib, joylardagi ota-onalari migrant bo'lgan yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilingan va farzand tarbiyasida ishtirok etmaydigan ota-onalar farzandlariga qonuniy vakil tayinlash, ular nazoratsiz qolishining oldini olish mahallalarda to'liq tashkil etilmas edi. Sababi, ularni tahlil etishga ishchi kuchi yetishmasdi. Shu tufayli, bolalarning muammolari va ularning tarbiyasi nazoratdan chetda qolib qolgan.

Yangi tizim natijasida 2024-yil 1-iyundan boshlab ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan, nazoratsiz qolgan, voyaga yetmagan bolalar "Inson" markazlarining mahallalardagi ijtimoiy xodimlari tomonidan nazoratga olinadi. Endilikda hayoti, sog'lig'i xavf ostida bo'lgan yetim va nazoratsiz qolgan bolalarni qaramog'iga olish bo'yicha "Ixtisoslashtirilgan tutingan oila" shakli joriy etiladi. Tutingan oila maxsus sertifikatga ega bo'lgan 30 yoshga to'lgan odamlar tomonidan tashkil etilib, 5 nafargacha bola qabul qilishi mumkin. Bunday oilalarni viloyatda yetim bola asrab olish istagida bo'lgan jami 967 oiladan boshlashni rejalashtirdik.

Bunda mazkur oilalarni "mahalla yetiligi" bilan birgalikda ularda irsiy kasalliklar mavjud emasligi, sog'lom turmush tarziga amal qilishi, bolalarga tadbiriya berish professionalizmiga egaligini o'rganamiz. Shundan so'ng tashkil etilgan komissiya bilan kelishilgan holda "tutingan ona" maqomi beriladi. Bundan tashqari, bolalarga ko'rsatilayotgan professional xizmatlar, muomala va ularning ijtimoiy o'xshish mahallalardagi ijtimoiy xodimlar orqali doimiy ravishda monitoring qilib boriladi.

Yana bir gap. Ota-onasidan ayrilgan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topib ketishiga ko'maklashish maqsadida tashkil etilishi rejalashtirilgan "Yoshlarga hamkorlik" dasturi doirasida viloyatdagi 91 nafar yetim bolani kasbga o'qitish, oliyog'ohlarga yo'llanma berish va ularni davlat ishlariga jalb etgan holda Vatanga muhabbatini, jamiyatga moslashuvini amalga oshirishni maqsad qilganmiz.

Avval yetim bolaga davlat tomonidan e'tibor, ma'lum bir yosh, ya'ni 18 yoshgacha etib belgilangan edi. Endilikda ushbu yosh ko'rsatkichi 21 yoshgacha uzaytirildi. Avvallari oliyog'ohlarga o'qishga kirgan yetim bolalarning keyingi taqdiri mavhum bo'lib qolardi. Endi esa yangi tizim tufayli oliyog'ohlarni tugatgach, ularni ishga jalb etish orqali davlatga, jamiyatga moslashuvini ta'minlash nazarda tutilmoqda.

Bu, gapimiz avvalida aytganimizdek, insonlar qalbidagi ishonch va umidni mustahkamlaydi. O'z-o'zidan ularda xalqparvarlik ruhi yuksaladi va jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shadi.

Avval yetim bolaga davlat tomonidan e'tibor, ma'lum bir yosh, ya'ni 18 yoshgacha etib belgilangan edi. Endilikda ushbu yosh ko'rsatkichi 21 yoshgacha uzaytirildi. Avvallari oliyog'ohlarga o'qishga kirgan yetim bolalarning keyingi taqdiri mavhum bo'lib qolardi. Endi esa yangi tizim tufayli oliyog'ohlarni tugatgach, ularni ishga jalb etish orqali davlatga, jamiyatga moslashuvini ta'minlash nazarda tutilmoqda.

natijasida hozirgi kunda 20,4 ming oilaning turmush darajasi yaxshilandi. Natijada "Yagona ijtimoiy himoya reyestri" dagilar soni 9 foizga kamaydi.

Albatta, maqsadimiz ko'rsatilayotgan yordam hajmini kamaytirish emas. Aksincha, ijtimoiy himoyani to'g'ri tashkil etib, uning o'z egalariga aniq yetib borishini ta'minlash orqali natijadorlikka erishish. Shu nuqtayi nazardan, o'tgan davrda nafaqa oluvchi oilalarni ishga va tadbirkorlikka jalb qilishga e'tibor qaratildi. Natijada ular barqaror daromad manbaiga ega bo'lgach, reyestrndan chiqarilayapti. Ayrim hollarda "mahalla yetiligi" tomonidan moliyaviy tomoni barqaror oilalar aniqlandi. Ularga yangi tartib to'g'risida tushuntirish ishlari olib borilishi natijasida ijtimoiy nafaqa oluvchilar ro'yxatidan chiqarildi. Muhimi, berilayotgan nafaqa pullari haqiqiy muhtojlarga yo'naltirilishi evaziga ijtimoiy adolat ta'minlanmoqda.

Davlatimiz rahbari ijtimoiy himoya sohasidagi xizmatlar qamrovini yanada kengaytirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishida qator vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, Ijtimoiy himoya milliy agentligiga viloyat hokimlari bilan birgalikda barcha

faoliyatini muvofiqlashtirish zarur, albatta.

Ayni paytda aholiga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmat va yordamlar, mazkur xizmatlarni olishga bo'lgan huquqlari bo'yicha tushuncha berish ham bizning vazifamiz hisoblanadi. Shulardan kelib chiqqan holda, kelgusida viloyatdagi jami 1025



Davlatimiz rahbari ijtimoiy himoya sohasidagi xizmatlar qamrovini yanada kengaytirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishida qator vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, Ijtimoiy himoya milliy agentligiga viloyat hokimlari bilan birgalikda barcha mahallalarda ijtimoiy xodimlar faoliyatini yo'lga qo'yish topshirildi.

Bir mahalla — bir mahsulot

Jarqo'rg'on tumanidagi Avlod mahallasida yashovchi 72 yoshli Xo'jaqul Xolbekov umri davomida turli soha va jabhalarda mehnat qildi. Hayotining 70-dovonidan o'tganidan keyingi xulosa shu bo'ldiki, odamning bo'lar joyi ham, borar joyi ham yer ekan. Bir necha yillar avval farzandlariga bosh bo'lib, xorijda ham ishlab keldi. Yoshi ulug'liging, kayvoniliginig o'z uyingda, ko'changda, mahallangda ko'tarishar ekan, o'zga elda emas. Ko'ngli og'rib, bolalarini ergashtirib qaytdi.

Oilaning boshlig'i — otaxon har bir farzandiga yer bo'lib berdi. Yillar davomida yo'ng'ichqadan boshqa ekin ko'rmagan, buning ortida solig'i ham birmuncha pul bo'lib ketadigan hayhotdek tomorqa bo'linib, tezda ixcham va ko'rkam holga keldi-qoldi.

Yerni boqsa, yer ham insonni boqar ekan. Shu tomorqalar ortidan zamonaviy uylar qurildi, oilalar butlandi, to'ylar qilindi. Xo'jaqul boboning ortidan qo'ni-qo'shni ergashdi va mahalla sabzavotchilikka ixtisoslashdi. Bugun mahallaning o'zida yuk mashinalarga o'tirilayotgan sabzavot mahsulotlari xorijiy davlatlarga peshma-pesh eksport qilinmoqda. Boboning aytishicha, umri davomida yerga munosabat va undan olinadigan foyda hech vaqt bu kabi tizimli bo'lmagan.

BIR QARICH YERDAN UY QILSA HAM, TO'Y QILSA HAM BO'LADI

Jarqo'rg'on tumanidagi yana 51 mahalla Avlod mahallasi kabi "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili asosida mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirilgan. 2022-yilda bunday mahallalar soni 41 ta bo'lsa, 2023-yilda 52 taga yetkazildi. Natijada joriy yil hosili uchun 48 ming 674 ta xonadondagi 4300 gektar tomorqadan samarali foydalanish yo'lga qo'yildi. Avlodliklar 149 gektar maydonda dehqonchilik qilib keladi. Shundan 20 gektarida karam, 22 gektarida bulg'or qalampiri va qizil lavlagi yetishtiriladi. Bundan tashqari, 107 gektarda uzumzor ham tashkil etilgan. Avlodlik dehqonlarning aytishicha, ular yetishtirayotgan turli qishloq xo'jaligi mahsulotlari nafaqat ichki bozorga, balki qo'shni viloyatlar va xorijga ham muntazam yetkazib berilmoqda.

— Jarqo'rg'onning quyoshi saxovatli, tuprog'i oltinga teng. Yerga nima qadasang, unadi. Mahallamiz sabzavotchilikka ixtisoslashayotgani ortidan biz kabi dehqonlar shijoati yanada ortdi, yutuqlarimiz yil sayin yaxshilanib boryapti, — deydi tomorqa yer egasi, mehnat faxriysi Xo'jaqul Xolbekov. — Bugun to'rvasini ko'tarib, chetda ishlayman deb jo'naganni



kostyumidan tortib, tomorqalarimizni bir aylantiraman. Avlodda issiqxonalar soni kun sayin ortib boryapti.

Jarqo'rg'on tumanida o'tgan yili jami 20 gektar issiqxonalarda 641,7 tonna mahsulot yetishtirildi. Joriy yilda esa issiqxonalar qurilgan maydon 51,7 gektardan oshdi. Hosildorlik ham 2023-yildagidan 1,2 barobar ortishi ko'zda tutilgan.

Angor tumanidagi Bahor mahallasi mirishkorlari ham qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda katta tajribaga ega. Mahallada karam, gulkaram, daykon, qizil karam kabi xaridorlig mahsulotlari yetishtiriladi va asosan, eksport qilinadi. Mahsulot eksporti uchun hududda logistika markazi va xizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yilgani samarasi bu. Endi mahallada

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash uchun ishlatiladigan vositalar tayyorlash boshlanmoqda.

64 yoshni qarshilagan Omongeldi Saidnafasov mahallaning oldi dehqonlaridan biri. U 4 sotix issiqxonada farzandlari bilan mehnat qiladi. Hozir ular pomidor ko'chatlaridan yuqori hosil olish uchun zarur agrotexnik tadbirlarni bajarayapti.

— Tomorqa — koni foyda, — deydi Omongeldi Saidnafasov. — Bir yilda uch marta hosil olamiz. Avval pomidor, keyin bodring, uning ortidan ko'kat ekamiz. Masalan, shu yil bir kilo ko'katni 35 mingdan ham sotdik. Ishlasang, shu bir qarich yerdan uy qilsa ham, to'y qilsa ham bo'ladi.

O'tgan yili mahallada dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqalaridan samarali foydalanish hisobiga 28 ming tonna mahsulot yetishtirildi. Shundan 22 ming tonna eksportga yo'naltirildi. Aholi daromadi esa o'rtacha 98 million so'mni tashkil qilgan. Dehqonchilikda erishilayotgan natijalar hudud aholisini yanada yuqori maralar sari undamoqda. Joriy yilda hududda 36 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va aholining o'rtacha daromadini

130 million so'mga yetkazish belgilab olingan.

— Viloyatdagi mavjud 721 ta mahallada 2018-yildan boshlab bosqichma-bosqich "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyilini amalga oshirishga kirishildi. Hozir 572 ta mahalladan 307 tasi meva-sabzavot, 12 tasi poliz, 75 tasi bog', 61 tasi chorvachilikka ixtisoslashtirildi, — deydi viloyat Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bo'lim boshlig'i Xayrulla Husanov. — Aynan shu tamoyil asosida har bir mahalla drayverini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olingan. Bu jarayon tizimli davom etmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yili "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili asosida Surxondaryo viloyatida 72 ming xonadonda sabzavot va ko'katlar, 21 ming 600 ta xonadonda kartoshka, 16 ming 90 tasida bog' tashkil etilgan va uzum yetishtirildi. Joriy yilda esa bu ko'rsatkichni 1,2 barobar oshirish ko'zda tutilmoqda.

Vohada hozirgi paytda 42 mingdan ortiq xonadonda umumiy hisobda 170 ming sotix issiqxonada mavjud bo'lib, o'tgan 2023-yilning o'zida ixcham issiqxonalar qurilishi natijasida qo'shimcha 9152 ta yangi ish o'rni yaratilgan. Joriy yilda esa bu ko'rsatkichni ikki barobar ko'paytirish reja qilingan. Yana shuni aytish kerakki, vohaning tashabbuskor dehqonlari yomg'ir suvini yig'ib, undan samarali foydalanishga ham kirishgan.

Eng muhimi, bu ezgu ishlar aholi uchun qo'shimcha daromad manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bugunning gapi

FOIZ STAVKASI NIMA? INFLYATSIYA-CHI?

Qarama-qarshilik va ziddiyatli dunyoda ishonch va o'zaro tushunish yo'qligi sharoitida barqarorlik va xavfsizlikka tahdidlar kuchaydi. Bu esa makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash ishini ham murakkablashtirib yubordi.



Ismoil SAIFNAZAROV,
falsafa fanlari doktori, professor

2023-yilda mamlakatimizda iqtisodiy o'sish 6 foizni tashkil qildi. Jumladan, sanoat 6, xizmat ko'rsatish 6,8, qurilish 6,4, qishloq xo'jaligi 4,1 foiz o'sgan. Bu yil yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 6 foizga ko'paytirib, 100 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Bunga erishish oson bo'lmaydi. Inflyatsiyani jilovlash, yashirin iqtisodiyotga barham berish, kredit berish tizimini yanada soddalashtirish, foiz stavkalarini bugungi darajada saqlab qolish talab etiladi.

Eng avvalo, butun dunyoda moliyaviy va iqtisodiy ahvol yaxshi emas. Dunyo bo'ylab Markaziy banklar uch yildan buyon ommaviy ravishda asosiy stavkalarni oshirishga kirishgan. Vaholanki, foiz stavkalari 2022-yilgacha 20-yilki bir maromda saqlanib turgandi. Bu esa dunyodagi o'zaro qarama-qarshiliklar kuchayishi, jumladan, Yevropada qurolli to'qnashuvlar boshlanishi ortidan energiya va oziq-ovqat narxlarining ko'tarilishi tufayli yuzaga keldi. Stavkalar o'nab yillar davomida past darajada saqlanib qolgan AQSH va Angliya ham oshirildi. Asosiy stavkalar oshirilishi ortidan moliya va kapital bozorida ham foiz stavkalari sezilarli darajada oshib bordi. Ushbu tendensiya rivojlanayotgan mamlakatlardan kapital oqib chiqib ketishiga, valyutalari qadrsizlanishiga, qarz yuki oshirishga olib keldi. Markaziy banklar asosiy foiz stavkalarini ko'tarishda davom etishi bois, ushbu mamlakatlarda retsessiya xavfi ortib bormoqda. Bu holat moliya va kapital bozorlarida investirlarning retsessiya bo'yicha kutilmalari ortishi aksiya va obligatsiyalar daromadlilik pasayishiga olib kelmoqda. Bu, albatta, inflyatsiyani o'sishi bilan bevosita bog'liq.

va Markaziy bank asosiy stavkani oshirsa, pul jalb qilish xarajatlarini ortishi sababli banklar kredit va depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini oshirishi mumkin.

Biroq shu bilan birga, yuqori stavka ham salbiy oqibatlariga olib keladi: aholining xarid qobiliyati va iqtisodiy rivojlanish sur'atlari pasayadi. Inflyatsiyani pasayishi va shunga mos ravishda asosiy stavkaning pasayishi bilan banklararo va xalqaro banklararo bozorda pul mablag'larini jalb qilish arzonlashadi, shunga mos ravishda ular nisbatan past foiz stavkalarida kredit beradi, uy xo'jaliklari hamda korxonalar uchun moliyaviy resurslar arzonlashadi.

Inflyatsiya — lotincha "inflatio" so'zidan olingan bo'lib, "shishish", "bo'rtish", "ko'tarilish" degan ma'nolarni anglatadi, mamlakatdagi tovar va xizmatlar bahosi umumiy darajasining oshishi (o'sishi) tushuniladi. Narxlarining umumiy darajasi ko'tarilishi natijasida mamlakat pul birligi (milliy valyuta) xarid qobiliyatining pasayishi ro'y beradi. Bu esa, o'z navbatida, davlat pul birligi qadrsizlanishiga olib keladi.

Pulning qadrsizlanishi deganda, bir xil miqdordagi pulga vaqti kelib kamroq bo'lgan tovar va xizmatlarni sotib olish, ya'ni sotib olinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorining vaqti kelib kamayishi tushuniladi. Misol uchun, yil boshida 50 ming so'mga sotib olish mumkin bo'lgan kundalik iste'moldagi tovar va xizmatlar miqdori yil oxiriga kelib kamayadi. Bu esa 50 ming so'mga yilning oxirida yil boshidagiga nisbatan xuddi o'sha tovar va xizmatlarni kamroq miqdorda sotib olish demakdir.

Inflyatsiyani asosiy ko'rsatkichi iste'mol narxlarini indeksining ma'lum bir davrdagi

Mamlakat ichidagi tovar va xizmatlar bahosining o'sib borishiga ko'ra inflyatsiya turli darajada bo'ladi. Uzoq vaqt mobaynida tovar va xizmatlar narxi barqaror bo'lgan rivojlangan mamlakatlarda inflyatsiyani o'rta muddatli ko'rsatkichi 2 foiz atrofida, ushbu ko'rsatkich rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlar uchun esa nisbatan yuqoriroq, taxminan 2-6 foiz atrofida bo'lishi maqbul deb topilgan.



Mamlakat ichidagi tovar va xizmatlar bahosining o'sib borishiga ko'ra inflyatsiya turli darajada bo'ladi. Uzoq vaqt mobaynida tovar va xizmatlar narxi barqaror bo'lgan rivojlangan mamlakatlarda inflyatsiyani

fikr ommada mavjud, aslini olganda, inflyatsiyani har qanday darajasi ham iqtisodiyot uchun zararli emas. Iqtisodiy o'sish uchun kam foizli barqaror inflyatsiya bu tabiiy jarayon. Past darajadagi inflyatsiya iqtisodiyotda qo'shimcha talab yaratishi orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Inflyatsiyani umumiy yo'q bo'lishi esa iqtisodiyot o'sish sur'atini pasaytirib yuborishi mumkin. Shu bilan birga, shiddatli inflyatsiya kelgusida yuqori inflyatsiyaga olib kelib, iqtisodiyotni izdan chiqarishi ham bor gap. Shu nuqtaiy nazardan, past darajadagi barqaror inflyatsiya ijobiy hisoblanadi. Inflyatsiya faqat makroiqtisodiy ko'rsatkich emas, u aholi daromadi va turmush tarziga ta'sir qiluvchi omil ham hisoblanadi. 2022-yil yakuni bilan yurtimizda inflyatsiya 12,3 foizni tashkil etgan edi. Barcha iqtisodiy mexanizmlarni qo'llab, 2023-yilda bu ko'rsatkich 9 foizga tushirildi.

Inflyatsiyani kelib chiqishiga ko'ra ikki toifaga ajratish mumkin. Birinchisi — talab inflyatsiyasi. Inflyatsiyani bu turi talabning keskin oshishi natijasida iqtisodiyot pul taklifining oshishiga yoki xaridorlar tomonidan inflyatsion kutilmalar shakllanishiga olib keladi. Sodaroq qilib aytganda, ishlab chiqarish sohasi aholining talabini to'la qondira olmaydi, taklifga nisbatan talab oshib ketadi. Natijada tovar va xizmatlar narxi o'sadi.

Ikkinchisi — taklif inflyatsiyasi. Inflyatsiyani bu turi ishlab chiqarish

xarajatlarining keskin oshishi natijasida sodir bo'ladi. Ya'ni har xil jarayon va tarkibiy o'zgarishlar (soliqlar o'zgarishi, energiya resurslari narxi oshishi, davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar oshirilishi va boshqalar) tufayli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar ortadi. Natijada ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlar narxi ko'tariladi. Umumiy talab bilan taklif o'rtasidagi muvozanat ushlab turilishiga, inflyatsiya kamayadi.

Iqtisodiyotda talab bilan taklif o'rtasidagi mutanosiblik to'g'ri belgilangan holda, inflyatsiya bizga qattiq xalal bermagan. Inflyatsiya 15 yoki 16 foiz bo'ladimi, iqtisodiyotga "o'lim darajasi" dagi xavf emas. Inflyatsiya bizning eng qo'rqadigan joyimiz bo'lishi kerak emas. Iqtisodiy stagnatsiya, ichki investitsiyalar to'xtashi — mana bu og'ir oqibatlariga olib keladi.

To'g'ri, inflyatsiyaga ham e'tibor berish kerak, tashlab qo'yib bo'lmaydi. Lekin nimaning hisobiga inflyatsiya bo'lyapti — buni yaxshi anglashimiz kerak. Aslida, inflyatsiya yuqorilishi, asosan, iste'mol mollari, oziq-ovqat va qurilish materiallari bozorida narx-navo o'sishi bilan bog'liq. Oziq-ovqat va qurilish materiallari bozorida taqchilik bor. Bu taqchilik ana shu mollarning tanarxida soliq va bank krediti xarajatlarining haddan tashqari yuqorilishi hisobiga. Demak, bugun oziq-ovqat va qurilish materiallari tanarxini shakllantiruvchi omillarni ko'rib, tanarxni tushirish masalasini qarab chiqishimiz kerak. Shunda inflyatsiyani kamaytiramiz.

Inflyatsiyani pasaytirish holatida asosiy stavkaning o'zgarishsiz qoldirilishi pul bozorida real foiz stavkalari mo'tadilligiga xizmat qiladi. Bu esa kreditlash sur'atlari muvozanatlashuvi sharoitida jamg'arish faolligida joriy dinamika ushlab turilishida hamda tashqi moliyalashtirishning qimmatlashuvi fonida ichki moliyaviy manbalardan kengroq foydalanish imkoniyatini oshiradi. Milliy valyutadagi depozitlar bo'yicha yuqori real foiz stavkalari sharoitida bank depozitlari hajmining yuqori o'sish sur'atlari davom etishi kutilmoqda.

Bugungi kundagi inflyatsiyaga sabab bo'layotgan omillardan biri bu — yashirin iqtisodiyot. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xizmatlar, qurilish, sanoat sohalarda katta miqdordagi aylanma "soya"da qolmoqda. Yaqin paytlargacha yashirin iqtisodiyot va iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan 14 ta idora tarqoq holda shug'ullanayotgan edi. Bu ishlarni muvofiqlashtirish va kuchaytirish maqsadida Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti vakolatlari kengaytirildi. Bu departament eng zamonaviy vositalar va yetuk mutaxassislar bilan ta'minlanib, uning huzurida ilmiy-tahliliy va o'quv markazi ochildi. Agar "soya iqtisodiyoti"ga ham barham berilsa, inflyatsiyani yanada kamaytirishga erishish mumkin.

Munosabat

Prezidentimiz Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanida aholi farovonligini oshirish, bandlekni ta'minlashda tomorqa xo'jaliklaridan unumli foydalanish, yangi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali mavjud imkoniyatlardan to'g'ri va samarali foydalanish bilan bog'liq aniq vazifalarni belgilab berdi.

Bu bejiz emas. Bitta tuman hayot tarzi, amaliy ish jarayoni orqali inson qadriini ulug'lash, dasturxonlarimiz to'kinligi bilan bog'liq islohotlarni barcha qishloq va mahallalarda keng quloch yo'ydirish tashabbusi ilgari surildi. Yaratib berilgan imtiyoz va imkoniyatlardan el manfaat topmoqda.

Xalqimizda "Bo'sh qop tik turmaydi" degan naql bor. Uning zamirida yaxshi, farovon, to'kin yashash uchun mehnat va harakat qilishga da'vat yotishini ilg'ab olish qiyin emas. Ammo bunga faqat orzu-havas bilan erishib bo'lmaydi ham kundek ayon.

Farg'ona viloyatida aholi tomorqasidan unumli foydalanib, bir mavsumda 3-4 marta hosil olayotgan mirishkor tomorqachilar ko'p. Lekin bu "bizda hamma narsa joyida", deb xotirjam bo'lishga asos bermaydi.

Ayni kunda Prezidentimiz belgilab bergan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida har bir mahalla va xonadonda tomorqadan foydalanish, tadbirkorlik, ishbilarmolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq amaliy ko'rgazmali seminar, uchrashuv va muloqotlar o'tkazilmoqda.

Bu borada davlatimiz rahbarining 2024-yil 5-martdagi "Aholi xonadonlarida sanoat usulida mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash hamda tomorqa va dehqon xo'jaliklarida yangi zaxiralarni ishga solishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori muhim dasturilamal bo'layotir. Endilikda viloyat hokimligi va tuman sektorlari kesimida, tuman hokimliklari esa mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida har bir hududning ixtisoslashuvi, tuproq-iqlim sharoiti, suv ta'minotini inobatga olgan holda "Bir mahalla

KAFTDEK TOMORQAGA EGA ODAM KAMBAG'AL EMAS



— bir mahsulot tamoyili asosida tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish va mahsulot yetishtirishning



istiqboli ko'rsatkichlari belgilab olindi. Ushbu tamoyil asosida muayyan ekin mahsulotlarini yetishtirishga

ixtisoslashtirilgan mahallalar soni 729 taga yetkaziladi. Aholi tomorqalarida hosil yetishtirishni ko'paytirish, sifatini yanada

yaxshilash maqsadida 14,7 mingta ixcham issiqxona tashkil etilmoqda. Tomorqa ekin maydonlarini suv bilan ta'minlash uchun 37 ta katta hajmli vertikal sug'orish quduqlari qazilib, 1428 xonadonning 70 gektar tomorqasini suv bilan ta'minlash imkoniyati ortib, yiliga 2-3 marta hosil olishga erishiladi, 16 mingdan ortiq aholi o'zini o'zi band qiladi.

Bahor oylarida viloyatning 39 ming 10 gektar ekin maydonlarida sabzavot, poliz, kartoshka, dukkakli, moyli ekinlar ekish orqali 719 ming 842 tonna mahsulot yetishtirish rejasini ishlab chiqildi. Avgust-sentabr oylarida esa 40 ming gektar maydonga piyoz va sarimsoq hamda to'qsonbosti usulida sabzavot ekinlari ekish orqali 550 ming 182 tonna mahsulot aholi dasturxoniga tortiq qilinadi.

Bir so'z bilan aytganda, Sayxunobod tumanidan boshlangan islohotlar Farg'ona viloyatining barcha mahalla va xonadonlarida ham quloch yoymoqda.

Bahodirjon ABDURAHMONOV,
Farg'ona viloyat fermeri,
dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi



Inson qadri uchun

“Ishlamay maosh olishsa kerak...”



Erta tongda boboquyosh o'z haroratini borliqqa sochib, tiriklikka iliqlik baxsh etishga chog'langan mahal Xalqlar do'stligi ko'chasidagi ikki qavatli chog'roqqina uydan bir ayol chiqib keladi. Har kuni shu manzara: ayol uyidagilarga nonushta tayyorlab, hammadan oldin ishga ketib, uyga hammadan keyin qaytadi. Past bo'lyi, to'ladan kelgan, ammo jussasiga nisbatan serharakat bu opani hamma taniydi. Hurmat qiladi. U Buxoro viloyati Kogon shahridagi “Arabxona” mahalla fuqarolar yig'ini xotin-qizlar faoli, II darajali “Sog'lom avlod uchun” ordeni sohibi Siddiqa Bafoyeva.

O'zbek jamiyatida qadim tarixga ega mahalla institutini isloh qilish va yanada rivojlantirish masalasiga olti-yetti yil muqaddam jiddiy kirishilganini yaxshi eslaymiz. Ayollar muammolarini tizimli hal qilishga e'tibor tufayli mahallalarda xotin-qizlar mutaxassisi shtati joriy etildi. Bo'lg'usi kadrlar esa mahallaning o'zida yashab turgan ibratli insonlar orasidan saralab olinishi ustuvor vazifa qilib belgilandi. O'shanda mahallada raislik qilgan ta'lim faxriysi O'rin Bobojonov hududdagi tashkilot-muassasalarni kezb, shu ishga munosib nomzodni izlagandi. Sanoat va transport kasb-hunar kolleji direktori o'zining shogirdi edi, undan yordam so'radi. Shogird hozirda kompyuter operatori, bunga qadar maktabda chizmachilik va rasm o'qituvchisi, tuman hokimligi arxitektura bo'limida mutaxassis lavozimlarida ishlagan Siddiqa opani tavsiya qildi. Ilk tasavvur aldanchi bo'ladi deganlaridek, oqsoqol taraddudlanib qoldi. Boshidagi duxoba do'ppini yechib, stol ustiga qo'ydi-da, sobiq talabasi yuzlandi: — Asrorjon, singlimizning gap-so'zlari durust. Sening yozuv-chizuvlaringga uquvi yaxshidir, ammo mahallaning ishi faqat printerdan qog'oz chiqarishdan iborat emas. Bizga tinib-tinchimas, yelib-yuguradigan xodim kerak. Menga o'qituvchilaringdan



birortasini tavsiya qilarsan, deb o'ylagan edim.

— Men sizga hech pand berganmanmi, ustoz? — samimiy jilmaydi direktor. — Opani yaxshi bilganim uchun ham sizga tavsiya qildim. Gapimga xo'p deya vering, keyin xursand bo'lasiz!

Opaning o'zi tan olib aytishicha, bu tizimga

kelishidan avval mahalla idorasidagilar ishlamasdan oylak oladi, shu bois, ularning aksariyati xizmat xonasida bo'lmaydi, degan fikrda yurgan. Biroq jarayonda shaxsan ishtirok etib, ta'bir joiz bo'lsa, tizim “qozonida qaynab”, pastu balandni ko'zi bilan ko'rganidan so'ng bu yerda ishlashning o'zi bir jasorat ekaniga amin bo'ldi.

Ajrashishga jiddiy sabab ko'rsatolmaganlar ham bor

“Endi yashamayman!” deb jiddiy qaror bergan er-xotin, ularning oila a'zolari bilan muzokara olib borish mashaqqatini tomog'idan bir tomchi suv o'tmay qiyalayotgan bemor holatiga mengzash mumkin. Siddiqa Hamroyeva bundaylar bilan yakka tartibda shug'ullanadi. Kelinlarga sabr-qanoatni, ayol kishi turmush o'rtog'iga nisbatan bir pog'ona pastda turib muomala qilishi farzligini tushuntiradi. Turmushi buzilgach, hayot so'qmoqlarida o'zini yo'qotib qo'ygan ayollar qismatidan misollar keltiradi. Achchiq ustida oilasidan voz kechganlar kun kelib, ota uyiga sig'may qolishi judayam aynanchi bo'lishini ta'kidlaydi. “Boshi ochiq” ayollar haqida og'ziga kuchi yetmaydiganlar har narsa gapirganida dunyo ko'zlariga tor bo'lishi mumkinligidan ogohlantiradi. “Tasavvur qil, qizim, eritga ering boshqasiga uylanadi, o'zga ayoldan farzand ko'rad. Ko'chada ketyapsan-u, nogoh ularga ko'zing tushadi. O'sha ayolning bolasi eringni “dada” deb chaqiradi-yu, sening murg'aging bu so'zni aytishdan mahrum bo'ladi. Qanday ahvolda tushishingni bir o'ylab ko'r”, deya vulqon kabi otilishga shay turgan kelinchaklarni hovuridan tushiradi. Kuyovlarga ham shu yo'sin ta'sir o'tkazishga harakat qiladi.

Oilalar ajrim ilinjida sudga murojaat qilganida, fuqarolik sudi mahalladagi Oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash komissiyasiga xat yuboradi. Shu asosda komissiya a'zolari er-xotinini chaqirtirib, masalani muhokama qilishi va sudga xalqda berishi kerak. Ajrashishga sabab ko'rsatolmaganlar ham bor.

— Yaqinda o'ziga to'q bir oila bilan shunday voqea bo'ldi, — deya eslaydi xotin-qizlar faoli S.

Bafoyeva. — Risoladagiday oila. To'rt farzandning ota-onasi. Bolalar sport bilan shug'ullanadi, ular orasida mamlakat chempioni bo'lganlari ham bor. Ayol farzandlari kelajagi uchun qayg'urib, oila buzilishiga qarshi. Ammo eri qaysarlik otidan tushmay, ajrashaman, deb turib oldi. Bir yildan ortiq vaqtimiz ketdi, yarashira o'lmadik. Da'voni ko'rib chiqqan sud to'qqiz oy o'tib, ularni ajratishga sabab topolmagach, erkakning talabini rad qildi. Shunga qaramay, er olti oy o'tib, yana sudga da'vo arizasi kiritdi. Guldek farzandlari taqdiri arosatda qolayotganidan afsuslandim. Lekin na iloj, osmon yiroq, yer qattiq.

Shunday qusurlarga qaramay, bir laha bo'lsa-da, sa'y-harakatlar to'xtatgan yo'q. Imom-xatiblar, keksa otaxonu onaxonlar, otinoyilaru oqila ayollar jalb etilgan holda yoshlar, ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar a'zolari uchun targ'ibot tadbirlari o'tkazilyapti. Tadbirlarda keksalar o'z tajribasi bilan o'rtolashib, yig'ilganlarga oila mas'uliyati haqida qimmatli fikrlar aytadi. Ishtirokchilarning ruhiyatiga, dunyoqarashiga ta'sir o'tkazayotgan videoroliklar namoyishi etilmoqda. Mahalla tadbirlariga ro'yushlik bermaydigan xotin-qizlar ham topiladi. Faollar ularni qamrash uchun san'atkorlarni jalb etishga va shu orqali o'z tashviqotlariga odamlarning e'tiborini qaratishga harakat qilmoqda. Ishlar shu bilan chegaralanib qolayotgani yo'q. Ko'chama-ko'cha, uyuma-uy yurib, olib borilayotgan tushuntirishlar bugun o'z mevasini berayotir. Buning natijasida erta va qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, erta tug'uruq, xotin-qizlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar keskin kamaygan.

FAOLLIKNING YUKI OG'IR, AMMO SHARAFLI

Birinchi qadam mas'uliyati

Tarixdan ma'lumki, Kogon shahri amirlik davrida “Yangi Buxoro” deb atalgan. Uning vujudga kelishi chor Rossiyasining istilochilik yurishlari bilan chambarchas bog'liq. XIX asr oxirlarida bu yerda temir yo'l qurildi. Temir yo'l kelishi bilan shahar gavjumlashdi, turli millat vakillari ko'chib kela boshladi va u sanoat shahriga aylandi. Ma'lumotlarga ko'ra, buxorolik jadalarga ham aynan shu shahar boshpana bo'lgan, ilk gazetalar shu yerda chop etilgan...

Albatta, har bir hududning infratuzilmasi barobarida u yerda istiqomat qiluvchi aholining mentaliteti va ijtimoiy ahvoli bir-biridan tubdan farq qiladi. Mana shu jihatdan ham Kogon shahri bir muddat huquqbuzarliklar ko'rsatkichi yuqori hudud sifatida e'tiborni tortib kelgan.

Mahallada bir oy ichida o'zini ko'rsatgan qahramonimiz kutilmaganda ishlamayman, deb turib oldi. Unchamuncha asablar ko'tarmaydigan oilaviy nizolar diydasu yumshoq opani bezdirgandi. Shunchalar yurak oldirganidan bo'lsa kerak, endi ortga qaytmayman, deya o'zicha ahd ham qilgandi. Tutgan yerini kesadigan qaynonalar, gap uqmas kelinlar, ikki oyog'ini bir etikka tiqib oladigan erkaklar, keraksiz joyga aralashib, mojaro oloviga moy sepadigan qaynopayu qaysingillarni insofga chaqirish xamirdan qil sug'urgandek oson bitadigan ish emas. Hayotni o'z qarichi bilan o'lchaydigan kimsalarning kaltabinligi,

ular tomonidan qilingan tahdidlar, janjallar sabab ayol o'z halovatini yo'qotdi. “Nega odamlar bu qadar toshbag'ir? Birining aytgan gapi ikkinchisiga yoqmagani uchun ajralib ketish adolatdanni? Bolalarning taqdiri nima bo'ladi, ularni kim o'ylaydi?” kabi savollarga javob topolmay o'rtanardi, alamini ko'z yoshlaridan olardi.

U bilan ish mas'uliyatini birga olgan jamoasi tashlab qo'ymadi. Avvaliga mahallaning ikki-uch faoli, so'ng rais bilan sektor rahbari yo'qlab bordi. Rahbarlar uch oy shartli muddat belgiladi. Shu vaqt ichida ham fikringiz o'zgarmasa, avvalgi ish joyingizga qaytaramiz, deyishdi. Tajribali psixologlar bilan kechgach subhat uning qarashlarida keskin o'zgarish yasadi. Miyasiga “qadali” qolgan stereotiplar barham topdi. O'z aurasini shakllantira boshladi. O'tgan davr mobaynida oilalar bilan ishlashni, odamlar tabiatidan kelib chiqib munosabat o'rnatishni, xotin-qizlar ko'ngliga yo'l topib, ular bilan davomli muloqot qilishni o'rgandi. Va bu jarayon shu qadar ildiz otdiki, endilikda ketishni xayoliga keltirmasdi. Jiddu jahd bilan muvaffaqiyatlarini rivojlantirishga ahd qildi. Dastlabki qadam doimo og'ir. Ammo qunt qilinsa, amalga oshmaydigan ishning o'zi yo'q. Qisqa davrda uning erishgan yutuq'ini shu bo'ldiki, uncha-munchaning “tishi o'tmagan” ikki oilani ajrim yoqasidan qaytarib, ularni yarashtirishga muvaffaq bo'ldi.



Mahallaning “buvisi”

Arabxona mahallasida bugungi kunda 2560 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Oilalar soni 1020 ta, ayollar 1294 nafar. Katta yo'l yoqasida joylashgan mahallada tadbirkorlik uchun yashaydigan ayollar ko'p. Biroq, Buxoroda buvi va momoni “bibi” deyishadi. Savol nazari bilan opaga qaragandim, u kulib tushuntira ketdi. Ismi Sohbiyon ekan, lo'li bola. Onasi Gulshan va ukalari bilan hududdagi chiqindixonani manzil tutgan, o'sha yerda yashaydi. Yotoqxonadan joy ajratishganida, ko'chib o'tishga unamagan. “Shu yer qulay, tirikchiligim ham shundan”, degan ekan. Opa ularidan tez-tez xabar olib turadi. Homiyilar bergan narsalardan ularga ham ilinadi. Odamlar uylaridagi baklashka va makulaturni yig'ib, Gulshanga keltirib beradi. Opa Gulshaning bolalarini maktabga joylashtirgan, Sohbiyoniga esa mahalla atrofida ishlash, tirikchilik qilishga yordamlashadi. Xotin-qizlar faolining xonadonlarga tez-tez tashrif va ko'magini ko'rib o'sayotgan aksariyat bolalar uni “bibi” deb chaqirarkan. Bolalar mehr gadosi, ular mehr bilan boqqan nigohlarni hech qachon unutmaydi. U esa bunday ehtiromdan boradigan bo'ldik. Bizni ko'rib, haligi yigit qalqib turdi va:

— Assalomu alaykum, bibijon,

yaxshimisiz? — deya qo'lini ko'ksiga qo'yib salom berdi. Xotin-qizlar faoli ham uning salomiga alik olarkan, onasini so'radi va mening nomimdan salom aytib qo'y, deb tayinladi. Darvoqe, Buxoroda buvi va momoni “bibi” deyishadi. Savol nazari bilan opaga qaragandim, u kulib tushuntira ketdi. Ismi Sohbiyon ekan, lo'li bola. Onasi Gulshan va ukalari bilan hududdagi chiqindixonani manzil tutgan, o'sha yerda yashaydi. Yotoqxonadan joy ajratishganida, ko'chib o'tishga unamagan. “Shu yer qulay, tirikchiligim ham shundan”, degan ekan. Opa ularidan tez-tez xabar olib turadi. Homiyilar bergan narsalardan ularga ham ilinadi. Odamlar uylaridagi baklashka va makulaturni yig'ib, Gulshanga keltirib beradi. Opa Gulshaning bolalarini maktabga joylashtirgan, Sohbiyoniga esa mahalla atrofida ishlash, tirikchilik qilishga yordamlashadi. Xotin-qizlar faolining xonadonlarga tez-tez tashrif va ko'magini ko'rib o'sayotgan aksariyat bolalar uni “bibi” deb chaqirarkan. Bolalar mehr gadosi, ular mehr bilan boqqan nigohlarni hech qachon unutmaydi. U esa bunday ehtiromdan boradigan bo'ldik. Bizni ko'rib, haligi yigit qalqib turdi va:

Mahalla fidoyisining uch nafar farzandi va ikki nevarasi bor.

Ishdan kech qaytganida, o'z vaqtda ovqat qilishga ulgurmaganda, turmush o'rtog'ining dahnomlarini eshitishga, “Ertadan kechgacha tinmayman, nima beradi shu ishing?” degan malomatlariga ko'z yumishga majbur bo'lgan. Ayniqsa, pandemiya davrida yaqinlarining xavotiri yanayam kuchaygan. Ko'p o'tmay, chekkan zahmatlarining mevasini ko'rdi. O'sha yili “Saxovat va ko'mak” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Qo'lda berganga qush to'yimas

Shu mahallada istiqomat qiluvchi 52 yoshli Ra'no Shokirova yolg'iz ona. Ancha yillar ilgari turmush o'rtog'i bilan Rossiyaga ishlagan borgan, o'sha yerda ikki farzandini dunyoga keltirgan. Ayolning aytishicha, ish beruvchi va yollanma ishchilar o'rtasida vositachilik qilgan turmush o'rtog'i ko'plab odamlarning pulini o'zlashtirgan va ularning qarq'ishiga qolgan. Birovlarning haqini yeb, cho'ntak qappaytirgan er o'sha yerning o'zidayoq xotini va bolalaridan voz kechib, ularni tashlab ketadi. Birinchi farzandi nogiron tug'ilgani sababli uzoq yashamagan. Keyingi umidi bo'lgan Aziz esa 18 yoshida qurilishda ishlash, pul topaman deb ketib, umurtqasini sindirib qaytgan. O'shandan buyon karavotga mixlangan. Avvaliga yotoqda qolayotgan o'g'lini parvarish qilish, uning dor-darmoniga pul topishga juda qiyndi. Topgan-tutgan tirikchilikka arang yetardi. Oylab go'sht yemagan paytlari bo'ldi. Xotin-qizlar faoli unga dalda berdi. Dastlab tikuvchilik kursida o'qitdi. Keyin tikuv mashinasi olib berdi. Tikish-bichish bilan shug'ullana boshlagacha, ro'zg'origa baraka kirdi. Rangpar yuzlariga esa yoshlik yoqlinlari qaytdi.

Ma'lum bo'lishicha, Ra'no opa texnikumda rassom-bezakchi mutaxassisligi bo'yicha tahsil olgan va devorga baref chizish san'atini yaxshi egallagan ekan. Siddiqa opa uni shu hunarini davom ettirishga undadi. “Mahalla yetiligi” esa uning ishlarini targ'ib qilib, mijoz topishda ko'maklashdi. Bu savob ishga Kogon shahar va Buxoro viloyati hokimliklari mas'uliyatli ham qo'shildi. Hozir har ikkala hunaridan daromad topayotgan ayol hech narsaga

muhtojlik sezmasdan umrguzaronlik qilmoqda. U doimo o'zini muhtojlik yoqasidan qaytargan xotin-qizlar faolini va uning ahil yelkadoshlarini duo qiladi.

Biz mahallada mehnat qilayotgan Gulshoda Qodirova, Nozima Xoliqova, Mahliyo Temirova, Marjona Shodmonova, Sevinch Bafoyeva, Sanobar G'ulomova singari shijo'lati xotin-qizlar huzurida ham bo'ldik. Biri tikuvchilik qilsa, ikkinchisi samsaxona ochgan, boshqasi go'zallik saloni yuritayotgan bo'lsa, yana biri baklashka va turli materiallardan sizni hayratga soladigan gullar, bezaklar, bejirim sumkalar yasaydi. Bu ayollarning aksariyati o'zlariga o'xshagan xotin-qizlarni ish bilan ta'minlagan. Boshqalari esa hunar o'rgatayapti. Ayollar orasida imkoniyati cheklanganlari ham bor, ammo bu kemliklik ularning hayotdan zavq olishiga, maqsad sari intilishiga to'sqinlik qila olmaydi.

Ehtiyojmand ayollarni bepul kasb-hunarga o'qitib, ularni kelajakda muhtojlikdan chiqarish tadbirlari amalga oshirilayotgan bir pallada bunday imkoniyatlardan yuz burib, faqat moddiy talab qilayotganlar ham yo'q emas. Undaylarga qarab, niyatchi va chumoli haqidagi masal yodga tushadi. Bugun qorin g'amida ertasini unatayotganlarni ko'rib, achinasan kishi. Zero, xalqimizda “Qo'lda berganga qush to'yimas” degan hikmatli gap bor. Homiyilar ham abadiy emas, ehson esa tog' emas. “Mahalla yetiligi”ning asosiy maqsadi odamlarni boqimandalik kayfiyatidan chiqarib, ularni faol bo'lishga va shukronalik hissini tuyishga da'vat etishdir.

Fidoyilik – buyuklik

Mahallada ishlayotgan har bir xodim o'z mas'uliyatini his qilib ishga yondashishini, yutuq yolg'iz harakat qilganda emas, aksincha, birlashgandagina mustahkam va bardavom bo'lishini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Siddiqa opaga o'xshaganlar haqida “Oddiy odam — oliy odam” degan ibora yuradi. Gapirishdan ko'ra amaliy ishi bilan ko'zga tashlanadigan ayol haqida uning hamkasblari juda iliq fikrlar aytdi. Oilada sevimli yor, mehribon ona, suyuqlik buvi, ishda esa barchaga suyanib ko'radigan fidoyi xodim. Ko'pchilik uni “tirik ensiklopediya” deydi. Mahalla faoliyati bilan bog'liq deyarli barcha ma'lumotlarni undan olish mumkin.

Mahalla fidoyisining uch nafar farzandi va ikki nevarasi bor. Ishdan kech qaytganida, o'z vaqtda ovqat qilishga ulgurmaganda,

turmush o'rtog'ining dahnomlarini eshitishga, “Ertadan kechgacha tinmayman, nima beradi shu ishing?” degan malomatlariga ko'z yumishga majbur bo'lgan. Ayniqsa, pandemiya davrida yaqinlarining xavotiri yanayam kuchaygan. Ko'p o'tmay, chekkan zahmatlarining mevasini ko'rdi. O'sha yili “Saxovat va ko'mak” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Joriy yil 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida bir guruh fidoyi ayollar davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlandi. Ular orasida Kogon shahridagi “Arabxona” mahalla fuqarolar yig'ini xotin-qizlar faoli Siddiqa Bafoyeva ham borligi yurtimizda inson qadri nechog'liq yuksak ekaniga yana bir karra dalildir.

Hamzabek TURDIYEV,
jurnalist





2024-YIL YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

Behzod HOSHIMOV:

“VATANIMIZ BITTA

Unga xizmat qilish ham iftixor, ham majburiyatimizdir”



Zamondoshlarimiz orasida Behzod Hoshimov nomini biladiganlar oz emas. Ayniqsa, yoshlarning ko'pi bu tirishqoq, tinib-tinchimaydigan tengdoshiga havas qiladi. Ayrimlar uni mashhur tadbirkor deb hisoblasa, boshqalar haqiqiy kasbi iqtisodchi ekanini biladi. Uning iqtisodiy mavzulardagi postlari, bloglarini o'qib boradiganlar ham talaygina. Iqtisodiyot sohasida ilm yo'lini tanlagan bu yigit hozir 30 yoshda va AQSHning Viskonsin universitetida talabalarga tadbirkorlik yo'nalishidan dars beradi. Bu yil Nyu-York universitetida professor lavozimida ish boshlaydi.

O'ziga to'q oilada katta bo'lgan insonlarning hammasi ham o'z mehnatiga tayanavermaydi. Behzodda esa bari aksincha va shuning uchun bo'lsa kerak, bugun u nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosida taniqli iqtisodchilar qatorida turadi.

Behzod Hoshimov Markaziy Osiyo ishlari bo'yicha Oksus jamiyati, Amerika Iqtisodchilar assotsiatsiyasi va AQSHdagi Strategik menejment jamiyati a'zosi. AQSH Patent va tovar belgilari idorasidan iqtisodiy model patenti sohibi, Xalqaro iqtisodiy olimpiadasi (IEO) hakamlar hay'ati tarkibidan o'rin olgan. Yurtimizdagi "Yuksalish" harakati tomonidan tuzilgan O'zbekiston blogerlari va inflyuenserlarining 30 talik ro'yxatiga kiritilgan, Yoshlar ishlari agentligining "100 kitob" loyihasi ekspertlar guruhi a'zosi.

Qahramonimiz shu vaqtgacha bosib o'tgan yo'li, matematika sohasidan birdaniga iqtisodiyotga o'tishi, jahonga mashhur kitob tarjimasiga muharrirlik va Prezidentimiz bilan uchrashuvda ko'targan masalalar haqida gapirib berar ekan, u dunyoning qaysi burchagida yashamasin, doim O'zbekiston taraqqiyoti uchun jon kuydirishi shundoq sezilib turadi.

Savollarning javobi qayerda?

— Bolalikdan o'zim bilmagan holda iqtisodiy masalalar haqida ko'p o'ylardim. Nima uchun bizning davlat kambag'al, degan savol bilan katta bo'lganman, — deydi B.Hoshimov. — Javobni atrofidan, odamlar orasidan izlardim. Yurtimizda bu savol shunchalik dolzarbki, unga har bir insonning o'z mantig'i bor. Negadir ko'pchilik bu muammoga mentalitetni sabab qilib ko'rsatadi. Menimcha, bu millatni yomon ko'rish bilan barobar. Ya'ni o'zbekistonliklar boy yashashga munosib emas yoki qodir emas, degan fikr meni achchiqlantiradi. Bu o'ta nojoiz g'oya.

Bir misol keltiram. Men oliy o'quv yurtining bakalavr bosqichini Singapurda Nanyan texnologiyalar universiteti matematika yo'nalishida tamomladim. Bolalikdan matematikaga qiziqishim va qobiliyatim bo'lgan. O'qish davomida meni doim qiyngan savollar yanada ortdi. Gap shundaki, Singapur bo'y, farovon mamlakat va o'zbekistonliklar bilan singapurliklarning farqi nimada, deb o'ylab, jo'yali javob topolmasdim. O'zbekistonliklar ham singapurliklar singari mehnatkash, uddaburon, tadbirkorlikni yaxshi ko'radi, yolg'on gapirmaydi va boshqa ko'plab ijobiy xususiyatlar bor jamiyatimizda. Va bu jamiyat kambag'al yashashga munosib, deyish men uchun o'ta mantiqsizlik bo'lib tuyuladi.

Qolaversa, Singapur atrofidagi boshqa davlatlarda ham shunday farq ko'zga tashlanadi. Ya'ni odamlari bir bo'la turib, yashash tarzi turlicha va ular Singapurdan kambag'alroq. Xo'sh, ayrim davlatlar boyroq, boshqalari kambag'alroq yashashining asosiy farqi nimada? Ana shu savollarga javob izlab, iqtisodiy kitoblar o'qiy boshladim va magistratura tahsilini ham shu yo'nalishda davom ettirishga qaror qildim. Undan oldin bir muddat O'zbekistonda ishladim. Toshkentdagi INHA universitetida talabalarga oliy matematikadan dars berdim. 2013-yilda

talabalar almashinuvi dasturi asosida AQSHning Kaliforniya shtatidagi Berkli universitetida bir semestr tahsil olib qaytdim. Keyinroq ushbu mamlakatga magistratura bosqichini davom ettirish uchun yo'l oldim.

Ko'pchilik Amerika orzusi sabab okean ortiga keladi, ammo mening maqsadim ilm olish va shu yo'nalishda faoliyatimni davom ettirish edi. Hozir shu yerda yashayman va Viskonsin universitetida ilmiy tadqiqot olib boraman. Ilmiy ishim tadbirkorlik iqtisodiyoti bilan bog'liq. Ya'ni tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rni, kelib chiqishi, sabab va oqibatlarini o'rganaman. AQSHdagi kapitalist investorlar qanday qilib startaplarga investitsiya kiritishi va o'sha jarayondagi



kommunikatsiyaning o'rini tahlil qilaman. Har bir mamlakat uchun iqtisodiyot muhim soha va bu kasb egalari talab yuqori, demak, ularda tanlov ham ko'p. Kimdir xususiy, kimdir davlat tashkilotida ishlaydi. Men esa universitetda qolishni va ilmiy faoliyatni afzal ko'rdim. Mening missiyam imkon qadar yaxshiroq olim bo'lish va ilmiy ishlar qilish. Ta'lim, ilm-fan rivojiga hissa qo'shishni maqsad qilganman. Va bu ilmiy ishlarimni o'zbek manbalarida ham muntazam berib boraman, ona tilimdagi maqolalar yozaman, iqtisodiy mavzularda kitoblar chop etib kelyapman.

Har bir asarning iqtisodiy mantig'i bor

Kitob o'qishni xush ko'raman. Faqat iqtisodiy emas, balki turli mavzulardagi kitoblarni o'qiyman. O'zbek, rus va ingliz tillarida erkin so'zlasha olganim uchun shu tillarning barida mutolaa qilaman. Ko'pchilik menga "Faqat iqtisodiy kitoblar o'qiyasizmi?" deb savol beradi. Men esa "Turli mavzudagi asarlarni o'qiyman va ularning har birida iqtisodiy mantiq bo'ladi", deya javob beraman.

Masalan, Braun universiteti professori Oded Galor o'zining "Insoniyatning tarixi: boylik va tengsizlik asoslari" kitobida boylik va boylikni so'nggi 40 ming, 10 ming, oxirgi 500 yil nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Tarixiy yo'nalishdagi ushbu ajoyib kitobni o'qish davomida hozir qanday yaxshi, farovon



zamonda yashayotganimizni, insoniyat tarixidagi qanchalar omadli avlod ekanimizni anglab yetish mumkin. Bir qarashda bu kitob Yuval Noa Xararining "Sapiyens"iga o'xshaydi, ammo Galor nafaqat tarixchi, balki iqtisodchi ham bo'lgani bois, u o'z kitobini Xarari yo'l qo'rgan xatolarni qilmay, juda zo'r yozgan. Mark Koyama va Jered

Menimcha, kitob o'qishdan ko'zlangan maqsadlardan biri jamiyat qanday fikrlar, farazlar, miflar yoki yangicha so'zlar bilan aytganda, qanday memlar ustida turgani, qurilganini ko'rishdir. Shunday ekan, ayrim kitoblarni nafaqat zavqli va foydali bo'lgani, balki favqulodda muhim va ulami o'qish kerak bo'lgani uchun ham o'qish kerak.

Kambag'allikning sababi "mentalitet" emas!

Iqtisodiyot sohasiga kirib kelishimga ham o'qigan kitoblarni turki bo'lgan. Ulardan biri Daron Ajemo'g'li va Jeyms Robinsoning "Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari" kitobi edi. Keyinchalik ushbu asarning o'zbekcha tarjimasiga muharrirlik qildim. Bunga meni bolalikdan qiyngan yana o'sha "Nega ayrim mamlakatlar boy, ayrim esa kambag'al?" degan savol turki bo'ldi. Va qaysidir ma'noda shu kitob orqali o'z savollarimga javob topdim.

Chindan ham nima uchun ba'zi mamlakatlarda, hatto o'rtamiyona yashaydigan kishilarning turmushi, hayoti kambag'al o'lkalardagi aksar



insonlamlikidan yaxshiroq? Bunga javob tariqasida maydonga mualliflar foydalangan asosiy tadqiqot manbasi — insoniyat tarixi chiqadi. O'tmishda ham barcha davlat birdek farovon kun kechirmagan, qadim jamiyat daromadli bugungiga monand bo'lgan. Qashshoqlik va tanglik hammaning bo'yniga tushgan og'ir tash edi. Insoniyat XVII asrgacha

hech qanday iqtisodiy taraqqiyotni ko'rmasdi hisob. Oxirgi 250-300 yilda esa o'sish va rivojlanish sur'ati keskin oshdi, daromadlar ko'paydi. Shu yerda savol tug'iladi: iqtisodiy o'sish o'zi nima? Bu nima uchun muhim? Ayni zamondagi turmush tarizimizni XVII asr sharoiti bilan solishtirish mushkul, lekin, keling, bir urinib ko'raylik. Agar turar joy, xonadondagi qulayliklar, ovqatlanish sifati, sog'liqni saqlash va maishiy yengilliklarga e'tibor berilsa, farq behad kattaligi darrov bilinadi. Ikki asr oldin hozirgi gullab-yashnagan o'lkalarda ochligu qiyinchilikdan vafot etadiganlar soni ko'p edi. XVII asrda chaqaloqlarning 30 foizi bir yoshga yetguncha kasallik, nosog'lom, sifatsiz turmush sabab nobud bo'lar, vaziyat bugungi eng qashshoq mamlakatlardagi raqamlardan-da qo'rqqinchi edi. Taraqqiyot etgan o'lkalarda bugun ming nafar chaqaloqdan 4 nafari bevaqt nobud bo'ladi, o'n yettinchi asrda esa o'ta yuqori: mingdan 300 nafari vafot etardi. Hozirgi natija o'lim oldidagi g'alabadir. 200 yil oldin ham insonlarning qariyb yarmi 20 yoshga to'lib-to'lmay olamdan ko'z yumardi.

Bu yutuq va o'sishning sababi, albatta, iqtisodiy taraqqiyot. Lekin savol hamon o'shanday ochiq turibdi: bir necha yuz yil oldin g'arbiy Yevropada boshlangan rivojlanish va iqtisodiy o'sishning sabablari nimada? Nega insoniyat XVIII asrgacha deyarli bir xil sharoitda yashadi-yu, keyin to'satdan oldinga sakrab, butunlay bo'lak manzara shakllandi? Nega biz allaqanday mo'jiza sabab misli ko'rimagan rivojlanish va taraqqiyot shohidi bo'lyapmiz? Kitob mualliflari buni institutlarning, birinchi o'rinda, siyosiy va iqtisodiy institutlarning o'zgarishi bilan bog'laydi. Mualliflar Daron Ajemo'g'li va Jeyms Robinson o'z akademik izlanishlariga tayanib, keskin farqlarga oid o'ta muhim xulosaga keladi: institutlar mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti uchun ham vosita, ham to'siqdir.

Kitob bilan ilk tanishgan paytim Kaliforniyaning Berkli universitetida talabalar almashinuvi dasturi orqali tahsil olayotgandim. O'shanda hamma qatori o'z-o'zidan "Nega universitetim joylashgan Singapur, dastur bo'yicha kelgan mamlakatim AQSH vatanim O'zbekistondan ancha ilgirilar ketgan?" degan savolga javob izlardim. Bu kitob ana o'sha adoqsiz savollarga javob izlashni o'rgatdi va iqtisodiyotga qiziqishimni uyg'otdi, qadrdonimga aylandi. Tushundimki, bizdagi rivojlanish bilan bog'liq muammolarning sababi resurslar yetarli emasligi, okeanlardan uzoqligimiz, iqlimning keskinligi yoki xalqimiz mentalitetida emas. Aslo! Kitobni sinchiklab o'qisangiz, tadqiqotlar boshqacha so'zlaydi — asl sabab siyosiy va iqtisodiy institutlar sifatida.

O'zbekistonda kambag'allik darajasi unchalik baland emas. Bilishimcha, bu taxminan 17 foiz atrofida (Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, o'tgan yili bu ko'rsatkich 11 foizni tashkil etgan). Kambag'allikning mavjudligi asosi esa iqtisodiy o'sish bilan bog'liq. Bu ko'proq ish joylari yaratilishi,

Men o'zim kabi olim do'stlarim bilan yurtimizning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish, har qancha maslahat bilan yordam berishga tayyorligimni bildirdim. Chunki bizda Vatan bitta va shu Vatanimizga xizmat qilish barchamizga ham iftixor, ham majburiyatdir.

iqtisodiy sohalarni rivojlantirish va boshqa ko'plab omillarga borib taqaladi. Yurtimiz sharoitida aholi daromadining o'sishida birinchi zaruriy narsa iqtisodiyotda samaradorlikni oshirishdir. O'zbekistonda boshqa rivojlanayotgan davlatlar kabi samaradorlik, mehnat unumdorligi nisbatan past. Buning sabablaridan biri esa iqtisodiyotda yetarlicha raqobatning yo'qligi hamda barcha muhim sektorlarda davlatning ulushi balandligida. Bu o'z-o'zidan raqobatni cheklaydi, raqobat bo'lmagan bozorda esa samaradorlik ham oshmaydi. Buning yechimlaridan biri, davlat o'z ulushini xususiy sektorga berishi kerak.

Yurt bilan bog'laydigan yangi platforma

O'tgan yil sentyabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi sessiyasida qatnashish uchun AQSHga kelganida biz bilan ham uchrashdi. O'shanda ayni shu masalalar haqida suhbatlashdik. Ochiq va samimiy ruhda o'tgan suhbat davomida fikrimiz bir joydan chiqqaniga guvoh bo'ldim. Davlatimiz rahbari okean ortida yashaydigan vatandoshlarimiz bilan ko'rishib, suhbatlashganini o'sha yerdagi har bir yigit-qiz alohida hayajon bilan eslaydi.

Prezidentimiz uchrashuv boshida hamma bilan so'zlashganida, menga ham e'tibor qarab, "Men sizni kuzataman, sizni o'qiyman, ko'rganimdan xursandman", dedi va bu men uchun kutilmagan, juda yoqimli holat bo'ldi. Qisqa ma'ruzadan keyin menga ham so'z berildi. Iqtisodchi bo'lganim uchun, albatta, iqtisodiyot haqida gapirdim. Chunki meni doim o'ylantiradigan asosiy masala bu O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va farovonligidir. Davlatimiz rahbari bilan 30 yildan ortiqroq muddatda qanday iqtisodiy taraqqiyotga erishdik va bu borada yaxshiroq natijalarga erisha olgan boshqa iqtisodiy rivojlangan davlatlar, masalan, Xitoy, Vyetnam, Polshada qanchalik tez o'sish bo'lgani va uning sabablari haqida gaplashdik. Shundan keyin O'zbekistonda chuqurroq islohot qilish kerak bo'lgan 5 ta soha haqida aytdim. Bular huquqiy muhit, erkin savdo, kapitalni erkinlashtirish, infratuzilma barqarorligini ta'minlash va ilm-fanga davlat tomonidan investitsiya kiritish haqida edi. Nazarimda, juda ochiq, sog'lom, interaktiv muloqot bo'ldi. Menga ta'sir qilgani, Prezidentimiz har bir vatandoshimizni sinchiklovchi bilan eshitib, "Sizlardek o'g'il-qizlarimiz borligidan faxrlanaman", dedi.

Men o'zim kabi olim do'stlarim bilan yurtimizning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish, har qancha maslahat bilan yordam berishga tayyorligimni bildirdim. Chunki bizda Vatan bitta va shu Vatanimizga xizmat qilish barchamiz uchun ham iftixor, ham majburiyatdir. Yurtimiz taraqqiyotiga befarq emasmiz, foydamiz tegsa, yordamga doim tayyormiz. Davlatimiz rahbari ham biz uzoqda bo'lsak-da, mamlakatimiz taraqqiyotiga ko'proq hissa qo'sha olishimiz, xorijdagi vatandoshlar o'z malakasi bilan ko'mak berishi mumkinligini ta'kidladi. Menga xorijdagi vatandoshlarning yurtimiz bilan muloqotini o'rnatadigan samarali platforma ishlab chiqib, taklif berishimni aytdi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Iroda TOSHMATOVA yozib oldi.



Olam nurga to‘lsin sen bilan, Navro‘z!

HAR TUNI QADRLI,
HAR TONGI FARAHBAXSH

Olimlarimizning Navro‘z haqidagi fikrlarini tinglar ekanimiz, bayram bilan bog‘liq qarashlarning asl negizida yovuzlik ustidan ezgulikning, zulmat ustidan yorug‘likning tantana qilishini ko‘ramiz. Navro‘zi olam nafaqat tun bilan kunning tenglashishi, balki qish faslida uyquga ketgan va erta bahorda keng qulochoy yozayotgan ko‘klamoyning, hayotimiz yuksalishining boshlanishi, deganidir.

Boshlanishi 1-betda

Navro‘z bayramining asl mazmun-mohiyati, tarixi, o‘lmas qadriyatlar va yana qaysi mamlakatlarda u keng nishonlanishi to‘g‘risida barchamiz ham to‘liq tasavvurga egamizmi? Navro‘zning milliy qadriyatlarimiz bilan bog‘liq qanday jihatlari bor? Uni bayram sifatida nishonlash tarixi qaysi davrlarga borib taqaladi? Qaysi davlatlarda qachon, qay maqsadda nishonlanadi?

Qadriyatlarga yuksak ehtirom

— Navro‘z oddiy bayram emas, balki xalqimizning tarixi, falsafasi, tushuncha va tasavvurlari, qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan, millat bilan ulg‘ayib, millat bilan birga taraqqiy etgan, asosda zamonlardan buyon elimizni e‘zozlab, yurtimizni ulug‘lab kelayotgan bayramdir, — deydi tarix fanlari doktori, professor Abdaxaliq Mavrolov. — Bu ayyom o‘zining qadimiyligi, tabiatimizga uyg‘unligi, mazmun-mohiyatining teranligi bilan boshqa bayramlardan ajralib turadi. Shu shukhli kunlarda odamlarning bir-biriga mehriyat, bemorlarga, imkoniyati cheklanganlarga ko‘mak berishi, qarindosh-urug‘lar holidan xabar olishi, yoshi ulug‘larning duosini olib, tevarak-atrofni va qabrstonlarni tozalash, obodonlashtirish uchun hashar tashkil etilishi ushbu bayramning azaliy udumlaridan eng asosiy hisoblanadi. Ayni kunlarda yurtimizning barcha hududlarida ushbu bayramni munosib nishonlashga katta taraddud ko‘rilmoqda. Zero, uch ming yildan ziyod tarixga ega Navro‘z — sharqona Yulboshi yangilanish, yasharish va bahor nafasini boshlab kelishi bilan ham qadrlil va suyuqlik hisoblanadi. Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng uning nufuzi yanada oshdi. Har yili Navro‘z bayrami arafasida ulug‘ sana munosabati bilan davlat rahbarining qarori qabul qilinishi bejiz emas. Joriy yilda ham Prezidentimizning tegishli qarori asosida inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni aks ettiradigan, bugungi ososiyta hayotimizni qadrlab, shukronalik tuyg‘usi bilan yashashga undaydigan, ma‘no-mazmuniga ko‘ra g‘oyat ta‘sirchan usullarda nishonlash rejalashtirilgan. Ha, ushbu bahor ayyomini har yili davlatimiz rahbarining qarori asosida nishonlashga o‘rganib qolganmiz. Chunki bu bayramga hayotimizdagi barcha o‘zgarish va yangilanishlar, zafarli yutuqlar uchun debocha — yangi davrning boshlanishi deb qaraladi.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri“Har tuning qadr o‘lubon,
har kuning o‘lsun Navro‘z!”

— Kun tunga teng bo‘lgan va har bir keyingi keladigan tundan bir necha daqiqani yorug‘lik foydasiga tortib oladigan, yangilanish davri, yangi quyosh yili boshlanadigan kun — Navro‘z, — deydi filologiya fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi Muslihidin Muhiddinov. — Ajdodlarimiz Navro‘z bayramini yangi yilning boshi hisoblab, faslning qanday kelishi, qay tarzda boshlanishiga



qarab yil davomida dehqonchilik, chorvachilik, tijorat va umuman, hayotning barcha jabhalarida sodir bo‘ladigan voqea-hodisalar haqida ma‘lum xulosalarini yozib qoldirgan. Shu asosda “Solnoma”, “Navro‘znoma”, “Me‘rojnomi” kabi asarlar bitilgan. Aslida, bu bayram, avvalo, yaratuvchilik va xotirjamlik bayrami deb hisoblanadi. Bayramning eng muhim ma‘nosi — uning ma‘naviy va madaniy hayotdagi, tinchlik va totuvlikni, mehriyat bilan hamda insonparvarlik g‘oyasini, do‘stlik va o‘zaro yordamni mustahkamlashdagi ro‘lidir. Ya‘ni qarindosh-urug‘ni yo‘qlash, xonadonlarda milliy taomlar tayyorlanishi va gina-kuduratlar unutilishidir. Hazrat Alisher Navoiyning “Har tuning qadr o‘lubon, har kuning o‘lsun Navro‘z!” degan bitiklari bugun ham xalqimizga xayrixoh. Yangi O‘zbekistonimizning har tuni-yunini hikmat-u ma‘rifati bilan ulayotgan muqaddas Ramazon oyi ohiyat va farovonlik nafasini yurtimizga uzra yoymoqda. Bugungi

kunda yuritilayotgan oqilona ijtimoiy siyosat bayramona kayfiyat sururini jadalashtirar ekan, xalqimizning har tuni qadrlil, har tongi farahbaxsh bo‘lishini tasdiqlayotgandek.

Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, Navro‘z o‘zining o‘lmas ruhi, umuminsoniy g‘oyalari bilan bashariyat hayotidan tobora chuqur o‘rin egallamoqda.

Fasllar almashinuvi

— Biz har yili Navro‘z bayramini o‘zgacha hayajon bilan nishonlaymiz va har yili yangidan yangi qirralarini, asrlar bo‘yi sir-sinoat bo‘lib kelayotgan jihatlarni kashf etib boraveramiz. Tarix bu — shunchaki raqamlardagina iborat emas. U har bir xalqning tushuncha va tasavvurlari, quvonchu tashvihlari, orzu-umidlarini ham ifoda etadi, — deydi folklorshunos olim, filologiya fanlari doktori Jabbor Eshonqulov. — Ma‘lumki, mavsumiy marosimlar dunyoning barcha xalqlari orasida eng ko‘hna tasavvurlar bilan bog‘liq holda paydo bo‘ladi. Ular har bir xalq yashayotgan hududning shart-sharoiti, ob-havosi, turmush tarzi va boshqa bir qator xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda shakllanadi, rivojlanadi. Shuning uchun ham xalqning asl, azaliy bayramlari, eng avvalo, uning folklorida o‘z aksini topadi. Yil fasllarining almashinuvi bilan bog‘liq bilim va tajribalari, taqvim va hisoblar avloddan avlodga turli aytim, maqol, matal, topshimooq, naql va afsonalar shaklida meros bo‘lib o‘tadi. Bayram marosimlarida ijro etiluvchi qo‘shiqlarda esa uning mazmun-mohiyati betakror metafora va o‘xshatishlar orqali, timsoliy tarzda ifoda etilganini kuzatamiz.

Ayni ko‘klam chog‘ida tabiatning qayta tirilishi, uni jonlantirish bilan bog‘liq “Qozon to‘ldi” kabi qadimiy marosimlar, tomosha

san‘ati, polvonlar kurashi, baxshilar bellashuvi, sumalak, lola sayillari bo‘lib o‘tgan. Ushbu marosim va sayillar mohiyatidan inson hayotini yanada yaxshilash, tabiat mushkulotlarini yengillatish, kelayotgan ko‘klam va yangi yilni qutlab, uning qut-barakali o‘tishini Yaratgandan so‘rash, turli o‘yin, harakat, qo‘shiqlar asosida yangi yilning qanday bo‘lishini chamalab ko‘rishga xizmat qilgan.

Ushbu e‘tiqod va u bilan bog‘liq marosimlar tizimi elimiz orasida bugungi kungacha yashab kelmoqda. Biz Navro‘zni qancha o‘rgansak, uning tarixi shunchalar teran ekanini yanada ko‘proq anglab boraveramiz. Navro‘z haqidagi afsonalardan birida ushbu ayyom kunida davlat qushi uchirilib, u kimning boshiga qo‘nsa, o‘shani shoh etib saylaganlari haqida so‘z yuritiladi. Aslida, bu davlatchilik haqidagi qarashlarning ilk kurtaklari edi. Bu yurtda, bu tuproqda Amir Temur davlati kabi ulkan saltanat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmagan. Buning zamiri juda olis zamonlarga, ajdodlarimiz o‘z qadriyatlarini ulug‘lab, uni Navro‘z deb atalgan qomusiy bir tizimga sola boshlagan davrlarga borib taqaladi. Navro‘z shunchaki bir bayram emas, bu xalqimizning jipslashishi, davlatchilik tushunchalarining shakllanish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq ulkan qadriyatdir.

Navro‘z qachon, qanday paydo bo‘lgan?

— Navro‘z bayrami Markaziy Osiyo, Eron va Afg‘onistonda Ahamoniylar davrida, miloddan avvalgi VI asrlarda keng tarqalgani haqida bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalar ma‘lumot beradi. Shu ma‘noda, olimlar Navro‘z tarixini 25-30 asrga ega, deb taxmin qiladi. Navro‘z qachon, qanday paydo bo‘lganidan

qat‘i nazar, u har tomonlama ilmiy asoslanib, koinot va tabiat qonuniyatlarini hisobga olingan holda joriy etilgan, — deydi Mir Arab oliy madrasasi rektori Jolib Elov. — Chunonchi, quyoshning hamal burjiga kirishi, kunduzning uzayva boshlashi, yorug‘likning kuchayishi, tabiatning jonlanishi — Navro‘z deb qabul qilingan. Navro‘z eski quyosh taqvimini hisobida farvardin oyining boshlanishiga (22-martga) to‘g‘ri kelgan va “kichik Navro‘z” deb atalgan. Ayni shu kundan boshlab tabiatdagi hamma narsa amalga kiradi deb hisoblanagan.

Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobida Navro‘z haqida qimmatli ma‘lumotlar yozib qoldirgan. Unda kichik bayram farvardin oyining oltinchi kunigacha davom etishi ta‘kidlangan. Demak, olim farvardin oyining oltinchi kuni “Katta Navro‘z”ning mohiyatini bevosita tabiat bilan bog‘laydi va bu haqda shunday yozadi: “...U butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya‘ni bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushibidan gullar ochilguncha, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, hayvonlarda nasl vujudga kelguncha davom etadigan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro‘z o‘lamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan”.

O‘zbekistonda Navro‘z bayrami 21-mart kuni nishonlanadi. Ushbu kun kecha bilan kunduzning tenglashgan payti. Yer butunjahon astronomik tenglashgan davriga kirib keladi. Yana shu davrda yarimshar bo‘yicha yil fasllari o‘zgarib turadi, agar janubiy yarimsharda kuz kelsa, shimoliy yarimsharda bahor. Hozirgi kunda ushbu bayram dunyodagi eng ko‘hna bayram sanalib, bir qancha Sharq xalqlari va Yevropadagi ba‘zi davlatlarning ayrim mintaqalarida ham nishonlab kelinadi. Jumladan, Afg‘oniston, Albaniya, Bahrayn, Suriya, Eron, Hindiston, Iroq, Livan, Ozarbayjon, Pokiston, Turkiya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston davlatlari va Rossiyaning ayrim hududlari shular jumlasidan. U barcha xalqlarning do‘stlik va birlik ramziga ega bo‘lgan umumxalq bayramidir.

Olimlarimizning Navro‘z haqidagi fikrlarini tinglar ekanimiz, bayram bilan bog‘liq qarashlarning asl negizida yovuzlik ustidan ezgulikning, zulmat ustidan yorug‘likning tantana qilishini ko‘ramiz. Navro‘zi olam nafaqat tun bilan kunning tenglashishi, balki qish faslida uyquga ketgan va erta bahorda keng qulochoy yozayotgan ko‘klamoyning, hayotimiz yuksalishining boshlanishi, deganidir.

Tero, ona zamin bag‘riga qadalgan urug‘ erangi rizqimizdan, momolarimiz sumaligi esa mehriyat bilan darak beradi. Elimizning ko‘p asrlik urf-odatlarini, orzu-intilishlarini ifoda etib kelayotgan Navro‘z ayyomini yurtimizda yashayotgan barcha millatlar orziqib kutadi va umumxalq bayrami sifatida nishonlab, o‘zbekona urf-odatlarimizning betakrorligi va boqiyilini butun olamga yoyadi.

YAXSHILIK, DO‘STLIK VA HAMJIHATLIK NAMOIYISHI

Aslida, sog‘lom fikrli har qanday inson uchun Vatan fasllarining yomoni bo‘lmaydi. Muqaddas diyorumizning qahraton qishini ham, olovli yozi-yu sokin kuzini ham birday katta muhabbat bilan sevamiz. Ammo negadir bahorni boshqacha intiqlik bilan kutamiz. Go‘yo bahorda qandaydir mo‘jiza yuz beradigan tayulaveradi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, bahorni nainki odamlar, balki butun borliq o‘zgacha taraddud bilan qarshi oladi.



O‘zbekistonda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlash uchun barcha huquqiy asos va zarur shart-

sharoitlar yaratilgan. Bag‘rikenglik madaniyatini tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayni paytda

yurtimizda etnik o‘ziga xosligi, tili, urf-odat-u an‘analari har tomonlama rivojlantirish, o‘zaro boyitish bo‘yicha teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lgan 130 dan ziyod millat va elat vakillari yagona oila bo‘lib hayot kechirmoqda.

Ko‘p millatli mamlakat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash bo‘lishi zarur. Ayni shu siyosat barqaror va to‘kin-sochin hayotimizning poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda.

Navro‘z aynan milliy mustaqillikka erishganimizdan keyin qayta tug‘ildi, deyish mumkin. Barcha qadimiy qadriyatlarimiz qatori bu bayram ham keng nishonlanadigan bo‘ldi. Negaki, u qadimiy qadriyatimiz, milliy o‘zligimiz timsolidir. Bu bayram yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat vakillari bilan birgalikda nishonlanadi. Shodiyonalarda turli tillarda kuy va qo‘shiqlar yozganchi ko‘ngilga allaqanday ajib kayfiyat bag‘ishlaydi.

Hozir respublikamizda 150 dan ziyod milliy madaniy markaz faoliyat ko‘rsatmoqda. Navro‘z munosabati bilan turli millat vakillari gavjum yashaydigan hududlarda xalq sayillari tashkil etiladiki, ularda har bir milliy madaniy markaz

o‘z an‘analari, marosimlarini O‘zbekistonda yashovchi boshqa millat vakillariga yaqindan tanishtirishga e‘tibor qaratadi. Badiiy jamoalar, havaskorlik to‘garaklari, taniqli san‘atkorlar ishtirokidagi konsert dasturlari, milliy taomlar, milliy liboslar ko‘rgazmalari, hunarmandlar ko‘rgazmasi kishiga olam-olam zavq beradi. Millati, tili va diniy e‘tiqodidan qat‘i nazar, har bir kishining qalbiga yangilik, quvonch olib kiradi.

Markaziy Osiyo xalqlarining o‘xshash jihatlari ko‘p, chunki ularning ildizi bir. Navro‘z ayyomini o‘tkazib, cho‘ponlar qiru adirlarga qo‘y-qo‘zisini olib ketadi, dehqonlar yerga ishlav berishni boshlaydi, xonadonlarda ko‘k samsa, sumalak, shuningdek, har xil milliy taomlar tayyorlanib, qo‘shnilarga, yaqinlarga ulashiladi. Katta tomosha maydonlarida arg‘imchoqlar yasilib, bolalar va yoshlar yaryab uchadi, kuy-qo‘shiqlar ijro etilib, qadimiy urf-odatlar eslaydi.

Masalan, qozoq va qirg‘iz millatiga mansub yurtdoshlarimiz qiz quvdi, ko‘pkari o‘yinlari va oqinlarning aytishuvlarini uyushtirsa, tojik yurtdoshlarimiz doshqozonlar atrofida mushoira, bahr-u baytalar, yor-yor-u laparlari

aytib, ko‘ngillarni zavqqa to‘ldiradi. Turk birodarlarimiz keng maydonlar va tog‘ yonbag‘irlaridagi go‘zal xiyobonlarga yig‘ilib, bazm tashkil etadi. Bunday bazmlarda kattayu kichik, yoshu qari, erkagu ayol — hamma-hamma davrani keng olib, qo‘l ushlablik raqsga tushadi. Davraning qoq o‘rtasida cholg‘uchilar dovul (nog‘ora), zurna (surnay) chalayib, choratrofni musiqa sadolari ila obod qiladi. Bazmda, albatta, turkcha palov damlanadi. Ziyofatdan so‘ng esa barcha ishtirokchilarga bayram sovg‘asi ulashiladi.

Tojik, qirg‘iz, turk, qozoq, turkman, ozarbayjon, tatar, boshqird kabi qadim tomirli tutas millatlarining urf-odatida bir-biriga yaqin jihatlari ko‘p. Navro‘z udumlarida ham ayni o‘sha bir xillik va o‘zaro yaqinlikning go‘zal ifodalari ko‘ramiz.

Ko‘pkari, qiz quvdi, askiya-aytishuvlar, kelin salomlari mushoirlari, dor o‘yinlariyu bellashuvlar — bularning hammasi insoniyatning g‘ayrati, shijoati, qalb go‘zalligidan darak berguvchi bebaho udumlar namoyishi, qolaversa, yurtimizdagi yaxshilik, do‘stlik va hamjihatlik ifodasidir.

Navro‘z barchani xayru-saxovat ishlariga

da‘vat etadi. Nogironlarga, bemor-u nochor kishilarga saxovat ko‘rsatiladi, imkon darajasida moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlanadi. Ana shunday lahzalarda davlatimiz rahbarining “Shu muqaddas zaminda istiqomat qiluvchi har inson o‘zini erkin, baxtiyor his qilsin”, degan ulug‘ istagi naqadar chuqur mazmun va qudratga ega ekanini yurak-yurakdan his etamiz.

O‘zbekiston Navro‘zi ana shunday ezguliklar timsolidir. U shunchaki namoyish, shunchaki bayram emas, balki odamning insoniy tuyg‘ulariga quvvat beruvchi, ularni yaqinlashtiruvchi, jipslashtiruvchi, yagona Vatan tuyg‘usini mustahkamlovchi bebaho omlidir.

Navro‘z bayrami O‘zbekistonning chet ellardagi vakolatxonalarida ham keng nishonlanadi. An‘anaga ko‘ra, yurtimizdan qator xorijiy davlatlarga madaniyat va san‘at namoyandalarining safarlari tashkil etilib, joylarda Navro‘z bilan bog‘liq milliy qadriyatlarimiz targ‘ib qilinadi, betakror o‘zbek taomlari pishirilib, dasturxon yoziladi. Navro‘z ayyomi arafasida xorijdagi vatandoshlarimiz tomonidan ham ushbu bayramga bag‘ishlangan turli tadbirlar o‘tkaziladi.

G‘ayratulla SHUKUROV,
Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini qo‘mitasi matbuot kotibi

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini ta‘hiriyati DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta ta‘hiriyati kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 952.
44909 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchesi muharrir: Munojat Mo‘minova
Musahhili: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060,
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

O‘z a yakuni — 01:52 Topshirildi — 02:15